

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
TARJIMONLIK FAKULTETI

«Himoyaga ruxsat etiladi»
Fakultet dekani
dots.X.Xayrullayev _____
« ____ » _____ 2013 y.

Boboev Behzod

5220600-tarjima nazariyasi va amaliyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha
Bakalavr darajasini olish uchun

**“ALVIDO QUROL” ASARI TARJIMASIDA TOPONIMIK JOY NOMLARI
VA ULARNING TARJIMASI TAHLILI”**

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

BMI tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası
majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi.
Bayyonnoma _____ 2013 yil « ____ »iyun.

Kafedra mudiri: _____ katta o'qit. Sayfullaev A.



SAMARQAND-2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
 I BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI ATOQLI OTLARINING QIYOSIY TAHLIL	
1.1.O'zbek tilida toponimik joy nomlari va ularning tuzilishi.....	9
1.2.Ingliz tilida toponimik joy nomlari va ularning ishlatilishi.....	42
 II BOB. TOPONIMIK JOY NOMLARINI TARJIMASI HAQIDA	
2.1. Atoqli otlarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari.....	47
2.2. Toponimik joy nomlarini tarjima qilish usullari.....	48
 III BOB. “ALVIDO QUROL” ASARI TARJIMASIDA TOPONIMIK JOY NOMLARI VA ULARNING TARJIMASI TAHLILI HAQIDA.....	
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	56
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA ELEKTRON MANBALAR	
RO'YXATI.....	58
 ILOVA	

KIRISH

"Qayt etib o'tilsinki, mamlakatda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillariga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integrasiyalashuvida yo'naltirilgan tizim yaratildi" (I.A.Karimov "chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi qaroridan". "Xalq so'zi" Toshkent 2012.10 dekabr).

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon o'tgan vaqt ichida jahon hamjamiyatida o'z o'rniga, dunyo siyosati maydonida o'z mustaqil ovozigaga ega bo'lgan davlat sifatida tan olindi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov olib borayotgan oqilona tashqi siyosat tufayli yoshlarimiz jahonning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish imkoniyatlariga ega bo'lishdi.

Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjamiyatimizda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir. Biroq shuni ta'kidlashimiz kerakki, chet tillarni o'rganish ona tilini esdan chiqarish hisobiga bo'lmasligi kerak. Inson fikrni til vositasida ifodalashning o'ziga xos qonunlari bor. Bu qonunlar barcha va ayrim tillarga xos bo'lishi mumkin. Til avloddan avlodga meros bo'lib o'tar ekan, o'z zamonasiga qarab taraqqiy etib boradi. Fan va texnikaning rivojlanib borishi, ma'lumotni avtomatik qayta ishlash va idrok etish, elektron texnikadan foydalanish natijasida tilshunoslik fanining yangidan-yangi tarmoqlari vujudga keldi. Turli qardosh va qardosh bo'lmagan til sistemalarini bir-biri bilan taqqoslab o'rganish keyingi yillarda juda keng avj olmoqda. Taqqoslash ishi minimal ya'ni ikki tilni va maksimal ya'ni ko'p tillarni bir-biriga solishtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Mamlakatlarning o'zaro rivojlanishi, tajriba almashinishida til muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk yillaridan boshlab ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratildi. Shu jumladan, O'zbekiston chet davlatlar bilan xalqaro aloqa qilmasdan turib o'z kelajagini belgilab bera olmasligini tushungan holda o'z e'tiborini chet el xalqlari tili, madaniyati, san'ati, davlat tuzilishi va joylashuviga qaratdi. Millatlar o'rtasida o'zaro aloqa qilishga ehtiyoj kuchaygan sari tarjimachilik faoliyati ham kuchayib boraveradi.

Keyingi yillarda milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini chet tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

Uzoq yillar davomida o'zbek adabiyotini to'g'ridan tog'ri ona tilimizdan tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan iste'dodli talaba yoshlarning mana shu mashaqqatli, ayni paytda oliyjanob ishga jalb etish, bu masalaning yechimi bilan bevosita bog'liq bo'lgan tashkiliy-amaliy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo'lur edi. Har ilmning o'z olimi, har olimning o'z olami bo'ladi deganlaridek, tarjimani ilm deb oladigan bo'lsak, tarjimonni esa shu ilmning olimi deymiz. Tarjima tillarni tillarga, dillarni dillarga bog'laydigan, ellar, mamlakatlarni bir-biriga esh, tanish, yaqin qiladigan zo'r vosita, do'stlik, hamkorlik ko'prigi, tarjimonlar esa Pushkin ta'biri bilan aytganda-*“ma'rifat otchoparlari”* dir.

Yurtimizda tarjimonlar tayyorlash masalasi, tarjimonlarga ehtiyoj qay darajada? Bu savollarga javobni quyidagicha ifodalash mumkin:

1.Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin uning turli mamlakatlar bilan fan, texnika, madaniyat, adabiyot, san'at, iqtisodiyot, siyosat sohasidagi munosabatlari tobora rivojlanib bormoqda. Demak, bizga mana shu sohalar bo'yicha malakali tarjimonlar kerak.

2.O'zbekiston buyuk tarixga ega bo'lgan, beqiyos tarixiy durdonalarni o'zida mujassamlashtirgan yurt. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarimizni ko'rish,

xalqimizning o'tmishi va hozirgi hayoti bilan yaqindan tanishish ishtiyoqida bo'lgan xorijliklar kam emas. Har yili turli mamlakatlardan keladigan minglab mehmonlarga yurtimizni tanishtirish uchun xorijiy tillarni biladigan iqtidorli tarjimonlar kerak bo'lishi tabiiy.

3.O'zbekistonda ko'plab qo'shma korxonalar, firmalar, elchixonalar, xalqaro tashkilotlar, xorijiy banklar faoliyat ko'rsatayotgani ham yetuk tarjimonlarga ehtiyojni kuchaytiradi.

Ayni paytda Samarqand Davlat Chet tillari institutidagina emas, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida ham tarjimashunoslik kafedrasini mavjudligi, O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetida tarjimon mutaxassislari tayyorlaydigan alohida fakultet faoliyat ko'rsatayotgani mustaqillik sharofatidir. Bunday sharoitda yurtimizda tarjima ilmi yanada rivojlanadi.

Tarjima ikkita til o'rtasidagina emas, balki turli asrlarda, davrlarda yashaydigan bir millatning ajdodi va avlodi o'rtasida ham "oltin ko'pri" vazifasini bajaradi. Bunday nazariy bilimlarga kelgusi avlodlar ham hali ko'p bora murojaat qilishlarini hayotning o'zi taqazo etishi shubhasizdir. Zamona zayli bilan alifbomiz yana o'zgardi. Bisotimizdagi barcha kitoblar-ilmiy, adabiy-badiiy asarlar, jumladan, o'tgan asrda tarjima qilingan rus klassik asarlari, jahon adabiyoti durdonalari ham lotin alifbosiga asoslangan yangi yozuvimizga tarjima qilinishi zarur. Birgina ona tilimiz ravnaqi uchungina emas, butun jahon xalqlarining tillari mutanosiblikda rivojlanishi hamda bir-birlarini tabiiy ravishda boyitib borishi, ular o'rtasida esa tarjima chinakam oltin ko'pri vazifasini bajarishini ilmiy jihatdan isbotlash kerak. O'sib kelayotgan avlodga tarjima nazariyasidan dars o'tish asnosida avvalo ona tilimizdagi har bir so'zni ko'z gavharidek asrashimiz zarur.

Tarjima tillar, adabiyotlar uchrashuvigina emas, balki tarixan tarkib topgan milliy, adabiy an'analarning ham duchlashuvi, uyg'unlashuvi mahsuli. Moslashtirish mayli ongli ravishda ham, beixtiyor tarjimonning xohishidan tashqari ham sodir bo'lishi zarur. Ha, tarjima-o'zing orqali o'zgani namoyon etishdir. Bu, ayni vaqtda

o'zga orqali o'zingni namoyon etish hamdir. Chindan ham tarjima boshqa ijod mahsullari singari ehtiyojdan dunyoga keladi, tarjimon o'zini namoyon etish uchun o'zgaga murojaat etadi. Ammo tarjima "tilni tilga ulaganda emas, balki dilni dilga payvand etganda paydo bo'ladi.

"Tarjima san'ati" degan katta sohani biz G'aybullas-Salom orqali tanidik. Tarjimashunos deganda ko'z o'ngimizda G'aybullas-Salomni keltiradigan bo'ldik. "Yaxshidan bog' qoladi" deganlaridek, G'aybullas-Salom qanchadan qancha ilm toliblariga saboq berish bilan birga yuzlab navqiron tadqiqotchilarga yaqindan yordam berib murabbiylik qildi va shu ezgu ishlar bilan o'ziga mangu haykal qo'yib ketdi. U maktab, ekib ketgan nihollar voyaga yetib, hali necha yillar davomida o'z mevalarini berajak. Agar tarjimonlar bo'lmasa, chet el yozuvchilarining asarlarini o'qiy olarmidik. Yo'q, albatta. Tarjima har xil bo'lishi mumkin. Buyuk asarni o'rtamiyona, o'rtamiyona asarni zo'r qilib tarjima qilish ham mumkin. Tarjima san'atini puxta egallagan tarjimon asarning saviyasini ko'tarsa, ko'taradiki tushirmaydi. Tarjima hech qachon adabiyotning rizqini qiymagan, aksincha, farovon qilgan. Tarjima hech qachon adabiyotning manfaatiga lat yetkazmagan, aksincha, uning ravnaqiga ravnaq qo'shgan. Eng yaxshi tarjima namunalari hech qachon g'oyaviy turg'unlik, ifodaviy-uslubiy g'alizlikka olib kelmagan. Tarjimashunoslikning kelajagi porloq. Chunki uning xoh adabiyotda bo'lsin, xoh siyosatda, yoki olaylik tibbiyotda roli katta. Dunyo miqyosida bilimlarni o'zlashtirish uchun ham axir, avvalo yaxshi tilmochlar kerak. Buning uchun tarjimonlik maktabini puxta o'tamoq zarur. Tarjima san'atisiz xalqlar bir-birlari uchun soqov bo'lib qoladilar, bir-birlarini tushuna olmaydilar. Turli millatlarning o'zaro muomala hamda hamkorlik vositasi tarjimadir. Tarjima san'ati chinakam mo'jiza. Tarjima til va tafakkurning buzilmas ittifoqi. Tarjima bor ekan, xalqlar bir-birlari bilan doimiy jonli muloqotda adabiyotlar bir-biriga vobasta, bir-biridan bahramand. Tarjima bor ekan, fikr fikrdan suv ichadi, boyiydi, o'tkirlashadi.

Tarjimonni qomusiy ijodkor, tarjima san'atini esa qomusiy ilm deb hisoblanadi.

Tarjimashunos qator tillarni, shu tillarda yaratilgan ilmiy yutuqlarni teran biluvchi keng qamrovli fenomen bo'lishi lozim. Tarjimani do'stlik ko'prigi, do'stlik elchisi, qit'alar masofasini yaqinlashtiruvchi chopar deydilar. Tarjimon chin ma'noda so'zning salmog'ini, sehrini, imkoniyatlarini inchunon qadrini biladigan so'z zargari, so'zshunos olim bo'lishi kerak. Tarjima ilm va san'at. Ilm bo'lganda ham, ne ne ilm ahli hayolini asrlar mobaynida band etib kelayotgan, san'at bo'lganda ham san'atlarning shohidir.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Yurtimiz olimlari tomonidan keyingi davrlarda olib borilayotgan tadqiqotlarni e'tirof etish bilan birga bu mavzudagi ilmiy ishlar deyarli amalga oshirilmaganligini ham ko'rsatish mumkin. Bitiruv malakaviy ishimizda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishiga ham aynan ushbu omillar sabab bo'ldi. Garchi bu davrdagi tarjima to'g'risida qarashlar mavjud bo'lsa, alohida fan sifatida o'rganilmas edi.

O'zbek tarjimachiligi qadimiy tarixga ega. XIX asrda Xorazmda o'z an'analariga ega bo'lgan katta tarjima maktabi tashkil topadi. Ko'plab tarixiy asarlar tarjima qilinadi. Bu davrdagi tarjimalar asosan bilvosita ya'ni rus tili orqali qilingan tarjimalar hisoblanadi. Mustaqillikdan keyingi yillarda o'zbek tarjimonlari orasida bevosita tarjima qilish tobora ko'paymoqda. Yuqorida bayon etilgan fikrlarimizdan ma'lumki, biz bakalavrlilik bitiruv malakaviy ish sifatida tanlangan mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularni tarjimada to'g'ri talqin qilish katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy ish uchun tanlangan mavzuning dolzarbligi, mazkur ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizda o'zbek tilshunosligida hali atroflicha o'rganilmagan toponimlarni tarjima qilish usullari, ularning struktural tuzilishini tadqiq qilishni maqsad qilib oldik. Bizning vazifamiz toponimlarni tarjimada berilishini ko'rib chiqishdir.

Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi tarjima jarayonida toponimlarni tarjimada berilish usullarini ko'rib chiqishdir.

Bundan tashqari ingliz va o'zbek tillaridagi toponimlarni yanada chuqurroq tahlil qilish va o'zbek toponimlarning shu paytgacha bevosita tarjima qilgan tarjimalarini yanada puxta o'rganib chiqib, kamchiliklari va yutuqlarini izlab topib, bevosita va bilvosita qilingan tarjimalar o'rtasidagi farqlarini o'rganib, kamchiliklarini ko'rsatib berib, kelgusi tarjimalarda bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun tarjimonlarga bu haqida ma'lumot berishdan iborat. Bu bitiruv malakaviy ishimizni taqdim etishning yana bir maqsadi o'quvchilarda toponimlarni qo'llashda yordam berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy vazifasi geografik joy nomlarining ma'lum bir ob'yektini aniqlash, uni boshqalardan farqlash, ya'ni manzil ko'rsatishdir.

Tadqiqot predmeti va ob'yekti: Bitiruv malakaviy ishimizni bajarishda rus va o'zbek tilshunos olimlarining atamalarining mohiyati, vujudga kelishi va tilda bajaradigan funksiyalari haqidagi tadqiqotlarga tayanib toponimlarni leksik, stilistik, semantik funksiyalarini, kelib chiqishga oid etimologiyalarini tadqiqot ob'yekti qilib belgiladik, bitiruv malakaviy ishimizni amalga oshirishda ingliz yozuvchisi Ernest Hemingueyning "Alvido Qurol" asaridan keng foydalandik.

Tadqiqot metodlari: Bitiruv malakaviy ishimizni bajarishda nazariy va amaliy tilshunoslikning asosiy tadqiqot metodlari: qiyoslash, taqqoslash va nazariy xulosalarga kelish metodlaridan foydalandik. Ushbu bitiruv malakaviy ish toponimlarni qiyoslab o'rganayotgan talabalarga nazariy va amaliy material bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu bitiruv malakaviy ishdan kelgusida oliy o'quv yurtlari, pedagogika institutlari va fakultetlarining chet tilini o'rganayotgan talabalari, ikki til sistemasini qiyoslash masalalariga qiziquvchilar, aspirantlar, shuningdek o'qituvchilarning erkin asar tarjima qilish jarayonida nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

Bitiruv malakaviy ishimizda O'zbekistonda tarjimachilik sohasi rivoji xususan ingliz toponimlarni o'zbek tarjimonlarining bilvosita qilgan tarjimalari, o'zbek va

ingliz tillaridagi toponimlar o'rtasidai farqi va o'xshashliklari va rus tili orqali tarjima qilishdagi muammolari haqida so'z yuritilgan.

I BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARID ATOQLI OTLARNING QIYOSIY TAHLILI.

1.1.O'zbek tilida tiponimik joy nomlari va ularning tuzilishi.

Tilimizning lug'at tarkibida atoqli otlar ma'lum bir o'rin egallaydi. Atoqli ot bir xil predmet yoki hodisani bir –biridan ajratib ko'rsatishga xizmat qiladigan ikkilamchi nom. Masalan, **bola** bir turdagi predmet ya'ni shaxsning umumiy va birlamchi nomi. **Sherzod** ana shu bir xil predmet ya'ni shaxsni biridan ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladigan va **bola** atamasidan keyin qo'yilgan ikkilamchi nom.

Atoqli ot quyidagi lug'aviy mavzuviy turga ega:

- 1.Kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi: Ikrom, Otabek, Jumayev, Xudoynazarov, Imomzoda.
- 2.Geografik joy nomlar (bularga oddiy ko'cha nomlaridan tortib qit'a nomlarigacha barchasi kiradi): Navoiy ko'chasi, Toshkent shahri, Pomir tog'i, Osiyo qit'asi.
- 3.Tashkilot, muassasa va korxona nomlari: Qarshi universiteti, Xalq ta'limi vazirligi, "Nafas ziyosi" jurnali.
- 4.Samoviy yoritgichlar nomi: Mushtariy, Zuhro, Yupiter, Yarqiroq.
- 5.Tarixiy voqealar, Bayram nomlari: Mustaqillik kuni, Loy jangi, Boston choyxo'rligi, Navro'z bayrami.
- 6.Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar: Olapar, To'rtko'z, Yo'lbars, Boychibor.
- 7.Mahsulot nomi: Siltama (go'shtli ovqat), Qoraqum (shokolad), Chiyal yaxnasi.
- 8.Ilohiy tushunchani ifodalovchi nom: Alloh, Do'zax, Iso, Buroq.
- 9.Kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, spektakl nomlari: "O'tgan kunlar", Ma'rifat gazetasi.
- 10.Suv havzalari va inshootlar nomlari: Amudaryo, Orol dengizi, Farg'ona kanali.

Atoqli otlar kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, tashkilotlarga atab qo'yilgan bo'lsa, yozuvda qo'shtirnoqqa olinadi, ammo shahar, kinoteatr, tashkilotlar kishi nomlariga qo'yilgan bo'lsa qo'shtirnoqqa olinmasdan, **nomidagi, nomli** so'zlari ishlatiladi.

Atoqli ot matn, nutq vaziyatidan uzilgan holda atash ma'nosiga ega bo'lmaydi, faqat kontekstda reallashadi. Masalan; **sanam** so'zining atoqli yoki turdosh ekanligi shu so'zni qurshab turgan so'z yordamida anglashiladi. Bu jihatdan atoqli ot olmoshga o'xshab ketadi.

Atoqli otning aksariyati turdosh ot va boshqa turkum so'zi asosida vujudga kelgan. Turdosh otdan: Asal, Dilshoda, Rayhon, Anor; feldan: Sotiboldi, O'lmas, Turdi; sifatdan: Shirin, Buyuk, Aziz, Ulug'; sondan Yetmishboy, Saksonboy kabi.

Atoqli va turdosh ot nafaqat lug'aviy semantikasi, balki grammatik xususiyati bilan ham farqlanadi. Atoqli ot, asosan, birlik sonda qo'llanadi. Ko'plik son shaklida butunlay boshqa ma'no bo'yog'iga ega bo'ladi. Masalan: *Farhodlar keldi kanal qazmoqqa.*

Ingliz tili grammatikalarida avval turdosh otlar, keyin atoqli otlar beriladi, shu leksik-grammatik turkumga kiruvchi so'zlarning asosiy qismi turdosh otlardir.

Yakkalik va umumiylik prinsipiga ko'ra otlar.

1) **turdosh otlar** (Common Nouns)

2) **atoqli otlarga** (Proper Nouns) bo'linadi

Inson, hayvonot, umuman tirik mavjudot va boshqa konkret yoki abstrakt tushunchalarni umumlashtiruvchi nomlar **turdosh otlar** deyiladi: **apple, river, egg, man, student, cat, bicycle, love, city, blanty.**

Yakka predmet, ma'lum shaxs, maxsus joy yoki hodisa nomlarini anglatuvchi ot **atoqli ot** deyiladi: **Shakespeare, Navoi, New York, London, the United Nations Organization, the Volga, Hamlet, Tom Sawyer.**

Yakkalik va umumiylikning asosiy leksik-grammatik ko'rsatish sifatida artikllar, ko'plik qo'shimchasi va boshqalarga keltirishimiz mumkin.

Atoqli ot bir turdagi predmetlarning bittasiga emas, balki yer sharining O'rta Osiyo qismiga joylashgan ma'lum daryo tushuniladi, agar **river daryo** deyilsa, daryolarning biriga umumiy manoda tushuniladi. **Writer** deyilganda umumlashtiruvchi nom **yozuvchi** tushuniladi. **Mark Twain** deyilsa, ma'lum asarlar

muallifi, mashhur Amerika yozuvchisi tushuniladi. Atoqli ot guruhiga kiruvchi har bir so'zni shu tarzda aniqlash mumkin. Atoqli otning ko'plik formasi yo'q. Agar atoqli otga ko'plik formasini yasovchi morfemalar qo'shilsa, u turdosh otga aylanishi mumkin. Kishi nomlari yoki familiyalarini bildiruvchi so'zlar turdosh otga aylanganda, unga ko'plik qo'shimcha qo'shilishi yoki artikl bilan ishlatilishi mumkin. Turdosh otga aylangan atoqli otlar shu oilaga mansub kishilarni yoki ularning oilalarini bildirib keladi. Masalan: **The Smiths**-smitlar oilasi yoki smitlar oilasiga mansub kishilar, **Shakespeares of our time**- Zamonamiz shekspirlari.

Ingliz tilida atoqli otlardan yasalgan turdosh ot, sifat bosh harf bilan yoziladi. Masalan:

China- Xitoy

-Chinese-xitoyli, xitoycha

England-Angliya

-English-ingliz, inglizcha

France-Fransiya

-French-fransuz, fransuzcha.

Spartakus-Spartak

-Spartarist-spartakchi, spartakka

oid.

Shahar, daryo, tog', ixtirochi nomlariga qo'shilib kelgan predmetlarning nomi ham turdosh ot bo'lishiga qaramay bosh harf bilan yoziladi.

Turdosh ot atoqli otga aylanishi mumkin. Masalan: **look**-nazar tashlash, qarash, **Look**-jurnalning nomi, **New Yorker**-New Yorkli kishi, **New Yorker**- jurnalning nomi. **Neftchi**, **Paxtakor** futbol komandalarining nomi bo'lib, ular ham turdosh oilalardan yasalgan, **sport**-belgi qashqa, **sport**-Qashqa (itning nomi).

Joy nomlari va geografik obyektlarning atoqli otlari hamma vaqt muayyan informative-axbarotlar manbai hisoblanadi. Kishilarning ismi, familiyasi, otasining ismi, taxalluslari, shuningdek geografik nomlar, planeta va yulduzlarning nomlari, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar atoqli otlar jumlasiga kiradi. Bular bir butun holda o'zbek tilshunosligining onomastik boyligini tashkil qiladi. Binobarin, onomastika so'zi asli grekcha bo'lib, "**nom qo'yish san'ati**" degan ma'noni bildiradi, hamda u tilning atoqli otlarini o'rganuvchi soha nomidir.

Atoqli otlar doirasiga kiruvchi nomlar orasida toponimlar salmoqli o'rin egallaydi. **Toponim** so'zi asli grekcha bo'lib, **onoma**-nom, **topos**-joy so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, joy nomi ma'nosini anglatadi. **Toponimlar** geografik nomlar, joy nomlari deb ham yuritiladi. Tilshunoslik fanining joy nomlarini o'rganuvchi sohasi **toponomika** deyiladi. **Toponomiya** deyilganda esa ma'lum bir territoriyadagi geografik nomlarning majmuasi tushuniladi. Masalan: Farg'ona vodiysi toponomiyasi, Samarqand tumani toponomiyasi, Janubiy O'zbekiston toponomiyasi kabi.

Joy nomlari juda uzoq davrning mahsuli bo'lib, til tarixi, tarixiy dialektologiya hamda tarix, etnografiya, geografiya, geologiya kabi qator fanlardan boy faktik material beruvchi manbadir. Joy nomlarining qachon paydo bo'lganligini, nimaga asosan shunday nom olinganligini, davrlar o'tishi bilan bu nomda qanday o'zgarishlar yuz berganligini aniqlashda yuqoridagi fanlar hamkorlikda ish ko'radilar. Joy nomlarini o'rganish o'sha territoriyada yashovchi xalqlarning tili, tarixi, turmushi, urf-odati, kasb koriga oid qator masalalarni oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Geografik nomlarga qiziqish juda qadimgi davrlardan boshlangan. Antik davrdagi "Gerodot", "Strabon", "Geografiya", "Pomponiy Mela", "Xorografiya", "Pliniy", "Tabiiy tarix" asarlarida, o'rta asr yodgorliklarida geografik nomlarga oid toponimik lavhalar ko'plab uchraydi.

Geografik nomlarning ilk marta tarixiy-geografik tadqiqot obyekti sifatida eramizning I asrida Pomponiy Mela foydalangan edi. U toponimlar asosida qadimgi Ispaniyaning janubiy qismidagi Kelt va Luzilaniya viloyatlari chegaralarini aniqlashgan edi.

Shunga qaramasdan, toponimlarni izohlash asrlar davomida ayrim afsonaviy shaxslar va boshqa hodisalar bilan bog'liq holda talqin qilinib kelishdi. Ammo ularni lingvistik nuqtai nazaridan o'rganish XIX asrning birinchi yarmidan boshlangan bo'lsada, tilshunoslik, adabiyot, tarix va ayniqsa geografiya fanlarining rivojlanishi bilan nomlar paydo bo'lishi ma'nosi haqidagi masalalar o'rta asrlarda ijod qilgan olimlarning ishlarida e'tiborli jihat sifatida qaralgan. Chunki ilm bilan shug'ullangan

kishilarning ijodlarida bayon etiladigan voqeliklar aniq bir joy, hudud yoki suv havzasi bilan bog'liq bo'ladi. Bu hudud yoki geografik nom bo'lib, bu nomning ma'nosi qaysi xalq tilidan olingani qachondan boshlab paydo bo'lgani hamisha qiziqarli bo'lgan. Eng oldingi paydo bo'lgan Osiyo, Yevropa, Liviya, Atlantika, kabi toponimlar buning isbotidir. Hozirgi Effra va Dajla daryolari havzasida yashagan oskriyaliklar, o'zlari istiqomat qiluvchi yerlarning quyosh chiqishi yo'llari tomonini, Osiyo kun botish tomonini Yevropa Afrika nomi milodning boshida yashagan rimlik geograf Pomponiy uchunchi qit'aning nomini Afrika deb rasmiylashtirgan. Undan oldingi davrlarda yunon olimlari Liviya deb O'rta dengiz janubidagi yerlarni atagan. Eramizdan oldingi uchinchi asrda Liviya paydo bo'lgan. Keyinchalik Rimliklar Parfogan hozirgi Tunist doirasini Afrika deb atagan.

Mashhur rus sayohatchisi va geografiya fani tashkilotchilaridan biri V.R.Semyonova rus toponimika faniga ulkan hissa qo'shgan olim. 1899 yildan boshlab chiqa boshlagan ko'p jildli "Rossiya. Vatannig to'liq ta'rifi" kitoblariga muharrirlik qilish jarayonida toponimika masalalarida alohida e'tibor berilgan. Olimning toponomika sohasidagi ishlarini 3 ta yo'nalishda ko'rish mumkin.

1. Toponomika va kartografiya
2. Toponomika va tarixiy geografiya
3. Toponomikaning hudud geografik sharoiti bilan bog'liqligi

Rus geografiya jamiyatida xaritalarda nomlarni transkripsiya kichik komissiyasiga boshchilik qilishda ruscha nomlarni lotin alifbosida berish tizimini ishlab chiqadi.

Yu.N.Shokoladskiy-okeonolog, tilshunos, akademik A.A.Shaxmatov sharqshunos akademiklar K.G.Zaliman va V.V.Bartodlar istirok etganlar. Geografiya jamiyatining Moskva filyalida toponimika komissiyasi butun mamlakat bo'yicha toponimik tadqiqotlariga yagona prinsip asosida boshchilik qilgan.

XX asrning 60-yillarida "Narodi Azii I Afriki", "Toponomiya vostoka" jurnal va yirik nashrlar chiqarildi. Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Qozog'iston, Turkmaniston

va boshqa mamlakatlarning toponomiyasini o'rganish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining geografik nomlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Uchta doktorlik va o'nlab nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Toponomikaga doir risolalar, monografiyalar, lug'atlar, maqolalar nashr etildi. Bu sohada A.P.Duyazon, E.M.Lurzayev, V.A.Nikonov, A.I.Popov, S.M.Paspelov, A.V.Superanskaya, V.N.Poporov, O.N.Trubachev va boshqalarning ishlari salmoqlidir. Akademik V.A.Nikolayevning toponomikani o'rganishga undovchi ilmiy metodik ishlarini E.M.Mirzayevning Markaziy va O'rta Osiyo toponomikani ommalashtirishga qaratilgan ishlari diqqatga loyiqdir. "Kratkiy toponimicheskiy slovar" nomli V.A.Nilolayev lug'ati, E.M.Mirzayevning "Ocherki toponimi", "Slovar mistnix geograficheskiy terminov", "Toponomika populyarnaya" kitoblari fan rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Abu-Abdulloh Muhammad Ibn Ahmad Ibn Yusuf Al Xorazmiy tug'ilib o'sgan 975-991 yillar Nishopirda yashab ijod etgan "Mofotix Al-Ulum" (Ilmlar kaliti) nomli ikki kitobdan iborat asari bilan mashhur olimdir. Asar ikkinchi qismining oltinchi bobi matematika, astronomiyaga bag'ishlangan. Bu bobda geografiyaga oid atamalarning to'la izohi beriladi. Xuroson va Movarounnahrga doir ma'lumotlar talaygina. Shaharning kengligi, uzunligi, g'arb bilan chekkasi yo'qligi, chunki astronomiyada ma'lum bo'lishicha ekvatorning har bir nuqtasi, bir joyga nisbatan sharqiy, ikkinchi joyga nisbatan g'arbiydir. Yerning ma'mura, "obod" qismi ekvatoridan shimolda joylashgan. Farg'ona, Xo'jand, Qashqar, Shom, Iloh, Ushrushana, Samarqand, Buxoro, Shibirg'on kabi nomlar arab tilida yozilgan ushbu asarda geografik nomlar sifatida ta'riflangan. Fanning faxri umumbashariy ilm-fanga katta hissa qo'shgan Abu Rayhon Beruniy 973 yili 4-sentabrda Xorazmda Amudaryoning o'ng sohilidagi Kat Shahri chekkasida tug'ilgan. 1048 yilda G'aznada vafot etgan.

Abu Rayhon Beruniy turli fanlarga doir ulkan merosida geografiyaga doir ilmiy talqinlar ancha yetakchi o'rin tutadi. H.Hasanovning ta'kidlashicha, geografik

bilimlar yoritilgan asarlar soni sakkizta. Bular "Osari Boqiy", "Geodoziya", "Hindiston", "At-Tahfim", "Qonuniy Ma'sudiy", "Mineralogiya", "Kartografiya" va "Saydana". Olimlarning ma'lumotiga ko'ra Beruniyning 170 dan ortiq asarlari bo'lib, "Xorazm tarixi", "Iqlimlar taqsimoti" nomli yirik asarlari bizgacha yetib kelmagan.

Beruniy ijodidagi Yer haqidagi bilimlarning barcha soha yo'nalishlariga doir nazariy masalalari xususida fikr yuritgan. Uning ijodiga O'rta asr olimlarining deyarli hammasi murojaat qilib, faoliyat ko'rsatgan. O'sha davrda ma'lum bo'lgan Atlantika okeani qirg'oqlari Tinch va Hind okeani, yettinchi iqlim mamlakatlari-shimoliy o'lkalar, ko'llar va dengizlar, shaharlar borinki hamma turdagi geografik atoqli otlar izohi uning asarlarida tasvirlangan. Chunonchi, Jurjon (Kaspiy) dengizi bu haqiqatda Hazor dengizidir. Ularning vayron bo'lgan mamlakatlari shimoliy **Etil** (Volga) daryosining quyadigan joyiga yaqin. U yerda shimoliy tomonda G'oziya yeriga yopishgan. Sharqiy tomonda Jurjon yerida Obaskun degan bondor borki, dengiz ham Obaskun nomi bilan ma'lumdir. So'ngra Tobaristonda daylam yeriga Sharvon va Bob-al-Abvobga, tutash, uning g'arbida u bilan Buntus (Qora dengiz-Pontiya dengizi) o'rtasida alon va sarir toifalari, ularning mamlakatlari va qit'alari joylashgan. U (Xazor dengizi) o'zidan boshqa dengizlarga tutashmasdan Xazor yeriga qaytadi. Keyin Etil daryosining quyilish yonida Xazor viloyati tomon yoyilgan, so'ng Gulzor (Turkmaniston) viloyatidan o'tib, yana Obaskukga qaytib keladi. Dengiz qirg'oqlaridagi viloyatlar nomi bilan yuritiladi. Ammo bizga Xazor nomi bilan ma'lum qadimiy xalqlarda Jurjoniya nomi bilan ma'lumdir, nainki Ptolomiy uni Ilqoniya (Gilkoniya) dengizi deb atagan. Bu dengiz boshqa dengiz bilan qo'shilmaydi. Mana Beruniyning (Qonuniy vas'udiy), (At-tafhim) asarlarida berilgan kasbiy dengizi toponimining geografik izohi.

Geografik nomlar bilan bog'liq Beruniy asarlarida Metiorologiya (Ob-havo) tilshunoslikka oid ilmiy atamalar izohlangan. Oxirgi sovuq haqida shunday deydi:

(Odamlar shunga hayron bo'lib, ajablanmasinlarki qish oxiridagi sovuq qattiq bo'ladi, ketish oldidan ancha zo'rayadi, bu hodisa issiqlikda ham xosdir)

Olim kundalik ob-havoga baho berganda bunday izohlarni ishlatgan. Qish havosi, qish shiddatli havosi, turg'un havo, sovuq havo, sovuq shimoliy shamol, o'zgaruvchan shamol, daydi shamol. Ozgina geografik mulohaza qilsak, hozirgi iqlimshunoslikda bu so'zlar o'rniga o'rtacha havo Arktika havosi seklon, antiseklonlar, havo massasi, havo oqimi degan tushunchalar ekanligini bilib olamiz. Beruniy asarlarida Binkat, Shosh shaharlaridan biri, turkiycha Toshkent, bu yunon mualliflarida Burj Al-Xurja qal'asidir. Demak "Toshkent" toponim-turkiy Toshkent, forsha Chosh, Binkay, arabcha Shosh bo'lib, barchasining ma'nosi turkiycha Tosh shahar nomining tarjima va o'sha tilga mos talaffuz etishidir.

Beruniy Shahrisabz shahrini Kesh shahri forslar Majomat deb yuritgan deb xabar beradi. Sirdaryo etaklaridagi Yangikent (hozirgi G'azalkent shahri ro'parasida, daryoning chap sohilidagi xarobalar) turli xalqlarda turlicha yuritilgan. Mahalliy turkiylar Yangikent-Janikent deb yuritgan nomni arablar (Qariyat al-Xodisa) (Qariyat-qishloq, hodisa-yangi) va Madinat al-Jadida (Madina shahar, jadida-yangi) fors tojikcha Doh Nov deb yuritgani haqidagi aniq mosollar orqali izohlagan. Beruniy asarlarida Sirdaryoning eng qadimgi nomi Xasart daryosi bo'lgan.

Beruniy asarlarida hozirgi geografik xaritalarida o'zgartirilib yoziladigan yoki butunlay boshqa nom bilan ataladigan toponomlar juda ko'p. masalan: **Faxr al-asad-sher og'zi-dahani sher** deb yuritilgan joyni hozir **Donisher** deb, **Zaim va Omuyya-karki** va **Chorjev** shaharlari, **Mazdubost-Amudaryodan Sariqqamichga** oqqan daryo va boshqalar. Bunday toponimik ma'lumotlar sharq tarixiy geografiyasini o'rganishda eng ishonchli manbalar ekanligi ko'rsatiladi.

Beruniy o'zidan 800 yillar oldin o'tgan Ptolomeyning Amudaryo haqidagi yozganlarini keltirib, Omuyya shahridan yuqorida Balx daryosiga quyilib, keyin Bolqon shahri yaqinida Xozor dengiziga quyilgan. Xozor esa Guz yerlarining chekalaridan burilib ketdi. Fam al-Asad degan joyda suv to'planib, daryo suvining bir

qismi Xorazm bilan Jurjon orasida joylashgan cho'ldagi Mazbubast deb atalgan daryo o'zanidan Sariqqamichga oqqanligini xabar beradi. Demak, ulug' allomalarning asarlarida jamiyat va tabiat tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud bo'lib, allomaning geografiyaga doir ilmiy merosi tabiiy muhitning ritmik taraqqiy etish qonunining aniq bir hududga tadbiq etish imkonini beradi.

O'rta Osiyo va sharq lug'atshunosligining eng katta yutug'i M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" nomli shoh asar hisoblanishi shubhasiz. Ota bobolari issiq qo'l bo'yidagi Borsxon shahridan bo'lgan xizmat taqozosi bilan Qoshg'arga borib qolganlar. Mahmud o'sha davr hukmronlarining yirik markaz shahri Qoshg'arda diniy bilimlar bilan birga astronomiya, geografiya, matematika va boshqa dunyoviy bilimlarga ham qiziqqan. Buxoro va Bog'dodda o'z bilimlarini mukammallashtirish uchun davom ettirgan. Turk tillarining qiyosiy grammatikasini talqin etish maqsadida, Mo'g'ilistondan Qora dengiz bo'ylariga keng hududlarda yashagan turkiy qabilalar orasida yurib ma'lumotlar asosida 1074 yilda "Devoni lug'atit turk" asarini yozib, tugatib, 1077 yilda xalifa Muqtadirga tadbiq etadi. M.Qoshg'ariyning umumiy turkiy tillarni o'rganish, turkiy til shevalarining qiyosiy grammatikasini tuzish folklor va etnografiya, sohasidagi xizmatlari nihoyat ulug'dir. Shu bilan birga turli fanlarning atamashunosligini yaratish va geografiya faniga ham ulkan hissa qo'shgan. Qoshg'ariyning geografik merosi asosan besh yo'nalishda o'z mazmunini topadi. (H.Hasanov 1981)

1. Devonda berilgan tabiiy geografik atamalar va ularning izohi;
2. Devoni lug'otit turkga ilova qilingan dunyo xaritasi;
3. Devonda uchraydigan joy nomlari va ularning izohi;
4. O'rta Osiyoda ayrim qabilalarning joylashishi haqida "aholi geografiyasi"ga oid ma'lumotlar;
5. "Devon"dagi astronomik ma'lumotlar taqvimlar tizimi-muchallar va ularning tarixi.

M.Qoshg'ariyning geografik merosi birinchi galda geografik atamalar tahlilidir. Tabiat va tabiiy hodisa, tabiiy jarayon xususan cho'l, tog', iqlim, yer, suv, hayvon, o'simlik va boshqalarga doir iboralar izohiga olim alohida o'rin bergan. Qoshg'ariy ishlatgan ariq, buz (muz), bulut, yomg'ir, yoz, kechik, kent, kuz, kun, ko'l, oy, ort (davon) oqim va oqindi, sel va selindi, suv vs suvloq tog', tuz, (tekis) tuman ungur chaqmoq, yayloq, yashin qayir, qoq qir, qish va qishroq, qor, qo'ltiq, qum va boshqa so'z iboralarni ishlatgan, ularning izohini bergan. Olimlarning yozishicha, bu so'z va iboralarning ba'zilar VII asrga mansub Urxun bitiklarda, Qultegin yodgorliklarida uchraydi. "Devon" da bu so'zlarning ishlatilishi va ularning ko'pchiligi hozirda ham iste'molda ekanligini hozirgi o'zbek geografik atamashunosligining mustahkam qadimiy zaminga ega bo'lishini ko'rsatadi. Yer va tuproqqa doir so'zlarni izohiga kengroq o'rin berilgan. Yalang yer-qora yer, bout-sho'r yer Sag'izlik-sog' tuproqli yaxshi yer, sag'iz tuproq-toza tuproq, sog, tuproq-toza yer-o'simligi kam yer, oriq, hosillar. Qayer-yumshoq tuproqli yer, tekis yer, qumloq yer; ta'kidlash lozimki, qayir hozirgi geografiya fanlarida ko'p ishlatiladigan daryo vaqtincha suv bosadigan qunloq-toshloq qismiga aytiladi.

Boldir tog'-tog' burun, tog'ning tekislik ichiga kirib ketgan tarmog'i. Hozirgi toponimlarda uchraydigan *boldir* so'zini osongina izohlash mumkin. Muzrabot tumanidagi Boldir temir yo'li bekati haqiqatan ham, Ko'hi tang tarmoqlarining bir uchu bo'lganligi uchun shunday atalgan. Ort-orqa, bo'yin, Gordon, tog' devoni, badalort, Ko'kort, Qizilort, Muzort, Oqort, Turug'oert kabi o'rta osiyodagi davonlar nomi nima uchun shunday nomlanganligini bilib olsa bo'ladi. Qurug'-amirlari boqiladigan ko'katzor, atrofi qurshalgan joy. Bu so'z tojik tiliga ham o'tgan. Qo'riqning hozirgi ma'nosi-qo'riqlanadigan daxlsiz tabiat kompleksi. Qo'riqxona, zapovednik so'zlarining o'zagi, qo'rig' II asrdayoq hozirgi ma'nosiga o'xshash mazmunda ishlatilgan.

Ob-havoga-meteorologiyaga oid so'zlar atmosfera hodisasi, osmon hodisasini ifodalash ushbu qimmatli asarda o'z ifodasini topgan. Masalan, talg'og' har tarafdin

esgan qattiq izg'irin shamol, qarog'u-qirov-bulut sugoldi-bulut tarqaldi, erkin yomg'ir-bir necha kun to'xtamay yog'adigan yomg'ir. Geografik nomlarning talqinida asarda katta o'rin berilgan-Bolosug'un Bekli, mo'g'ilcha g'ubalik go'zal shahar, Barsg'on yoki Basrxon-issiqko'l bo'yidagi shahar, kishi nomidan olingan, Yaponiya Jafarqa Morka, Poloda, chunonchi deb yozilgan M.Qoshg'ariy, Beruniy asarlaridan foydalangan. H.Hasanov tadqiqotiga "Devon"da ishlatilgan yetmishta joy nomi Beruniy asarlaridan olingan. Shu bilan birga tilga olinmagan Toshkentdan g'arbiy Xitoygacha masofada ko'pchilik joy nomlari ham berilgan. Shunday qilib, Beruniy, M.Qoshg'ariy va Hudud al-Olamning muallifi O'rta Osiyo geografiya nomshunosligi va toponomiyasining asoschilaridirki, ulardagi ilmiy merosni o'rgangan tarix va tilshunoslik fanlarining hali bahs talab sahifalarning to'ldirishi shubhasiz. Toponim va umuman geografik meros sohasida Marv shahrida tug'ilgan Xivada yashab ijod etgan XI asr oxiri va XII asr boshida yashagan falaklarning taxsimi haqida idrokning nihoyasi asari bilan mashhur bo'lgan. Al Xorazmiy muhim o'rin tutadi. U Jayhoniylar asaridan foydalangan, Ptolomeyga ergashib ma'ruzani parallel ravishda 39 zonachaga bo'lgan. Iqlim 5 ta zonachani II-VI iqlimlarning har biri 2 tadan zonachani 7 iqlim bir yo'la 18 ta zonachani o'z ichiga olgan. Ekvatordan boshlab chizilgan kunning uzun-qisqaligiga bir-biridan avvalo chorak soatdan, keyin yarim soatdan shimolroqdagilari bir soatdan farq qilgan, eng shimoldagi zonachalarning biri yorug' tun, bo'ladigan yerlar, 2 oy yorug' tun bo'ladigan yerlar, 3 oy, 4 oy, 5 oy va nihoyat 6 oy kechayu kunduzi bo'lib turadigan yerlar deb shimoliy qutubgacha belgilab chiqqan.

A.Mahmud Ibn Umar az-Zamaxshariy (1074-1144) xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. U sermahsul olim bo'lib, 50 tacha turli sohaga doir asar yozgan. Shulardan 25 tasi bizgacha saqlanib qolgan. Zamaxshariy asosan arab tilshunosligi sohasida juda ko'plab asarlar yozgan. O'z zamonasining yetuk arab tilshunos olimi bo'lib yetishgani holda "Vodiy va tog' ismlari" nomli arab tilidagi asari ham bor. Asarda Arabiston yarim orolidagi shaharlar, qishloqlar, tog'lar, vodiylar, suvlar izohi

berilgan. Bamisoli toponomik entsiklopediya deyish mumkin. Geografik nomlar alifbo tartibida belgilab nomlar ma'nosi nomlarning atalishi bilan bog'liq rivoyatlar berilgan.

Asl vatani Xuroson bo'lgan mashhur olim Najib Bahromning XVIII asr boshida yozilgan "Jahonnoma" asarida Beruniy, Tusiy, Xurdodbeh, Istohriy, Xusrav va boshqa olimlarning asarlari jadval tariqasida belgilangan va izohnoma tarzida tuzilgan asardir. Jahonnomada 600 tacha joy nomi belgilangan. Ular xaritada ko'rsatilgan Biyoboni Xuroson (Janubiy Qoraqum) Biyoboni Xorazm (Shimoliy Qoraqum) Turkiston, Termiz, Issiqko'l, Barsxon va boshqa joylar bilan bir qatorda Kalif Movarounnahr, Naqshob, Vahon kabi bizning yurtimiz nomlari ham o'z tasvirini topgan.

Faxriddin Banokatiy XIV asr boshida o'z ijodi bilan don taratgan Sirdaryo o'ng qirgog'idagi Banokat Shoxruxiya shahrida yashab ijod etgan olimdir. 1317 yilda ko'pincha "Tarixi banokati" nomi bilan yaratiladigan tarix va geografiyaga doir asar yozib, uni sulton Abu Saidga bag'ishlagan. Asar unga ilova qilingan, xaritasi xaritada ko'rsatilgan. Toponimlar jihatidan diqqatni o'ziga jalb etdiki, o'sha davr geografik nomlarini o'rganishida muhim manba deyish mumkin.

Shunday qilib, IX-XIV asrlarda sharq tarixi va geografiyasida sharq fani gullab yashnagan. Markazlashgan kuchli davlatni tashkil etgan ilm-fan Temur avlodlari davrida (1360-1507) dunyoviy ilmlarning boshqalari qatori geografiya fani ham yuqori darajada rivojlangan edi. Amir Temurning tuzuklarida iqlimlar, shaharlar, tabiiy sharoitlar xususida ilmiy asoslangan tushunchalar bayon etilganki, bular buyuk davlat arbobining geografiyani teran tasavvur etganligini ko'rsatadi. O'zining harbiy yurishlarida qo'llagan taktikasi muayyan hudud geografik sharoitini yaxshi bilganligi joy relyefi, va boshqa tabiiy sharoit harbiy yurish va davlatni boshqarishida yetakchi ahamiyatga ega ekanligini hisobga olishning namunasi ekanligini bildiradi.

Temuriyzodalarning ko'pchiligi davlat va harbiy yurish san'atini egallagan sarkarda adabiyotni yaxshi bilgan, ayrimlari yozgan g'azallardan devon tuzgan, shoir

hukmdor bo'lishi bilan birga, madaniyat fan va me'morchilikning homiysi sifatida faoliyat ko'rsatganligi ma'lum. Shuning uchun temuriylar hukmronligi davrida umumbashariy madaniyat va fanda chuqur iz qoldirgan Ulug'bek, Ali Qushchi, Navoiy, A.Jomiy, A.Samarqandiy, Hofizi Abru, G'iyosiddin Naqqosh, Ali Yazdiy, ibn Arabshoh, Xondamir, Mahmud Davlatbek, Samarqandiy, Kamoliddin Behzod kabi mutafakkirlar yetishib chiqqan. Bu tarixiy siymolarni aksariyati ilm fanning boshqa sohalari qatorida geografiya fani sohasida ham muayyan iz qoldirganlar. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek astronimiya sohasida o'z zamonidan ancha ilgarilab ketgan "Ziji Jadidiy Ko'ragoniy" yulduzlar jadvali asaridan tashqari "To'rt ulus tarixi" asari kun qirrali ijod sohibi bo'lgan olim sufatida tarixda o'z o'rniga ega. "To'rt ulus tarixi" 1425-yilda Mirzo Ulug'bekning ilmiy rahbarligi va shaxsan ishtirokida yozib tugatilgan, asarda Mo'g'iliston, Orta Osiyo, Eron, Afg'oniston tarixiy geografiyasi Chingizxon avlodlari hukmronligi va shajarasi, Xorazm davlatining Chingizxon tomonidan bosib olinishi aniq hududlar va muayyan geografik nomlar orqali bayon etilgan. Masalan Chingizxonning o'tgan 1988-yili 860 yilligi yubileyi nishonlangan. Jaloliddin ibn Sulton Muhammad Xorazmshoh bilan Chingizxon o'rtasida urushlari tarixi orqali Kot, Qiyot, Hirot, G'azna, Nasaf, Voliyon, Bobiyon, Nimruz, Utror, Dashtiqipchoq, Sind, Jayhun va boshqa shunga o'xshash ko'pgina geografik nomlar tilga olingan, ayrimlarga geografik izohham berilgan.

Temuriylar davrining eng yirik olimlaridan Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh Al-Xavofiy-Xofizi Abrudir. O'zining xizmat faoliyati Amir Temurning sayohatlaridan birida Munchiy-Kotiblik vazifasidan boshlangan, ko'p marta sayohatga chiqqan. Ko'p joylarni ko'rgan Hofizi Abru atoqli tarixchi geograf olimdir. "Yiroq safarlar asnosida shimoliy g'arbiy tomondan Movarounnahr Turkiston, Dashti Qipchoq, Xuroson, Iroq, Fors, Ozarbayjon, Eron, Gurjiston, Armaniston diyorlari va rus shom yerlarining barchasini firot daryosi sohillarini.... Hizor sohillarini sharqiy tomondan esa Qobulni,Multon O'ch va Hindistonning eng yirik shaharlari Dehlini Gang daryosi qirg'oqlarigacha bir necha bor bordim"deb yozgan. Hofizi Abru

1414-yilda Hirot hokimi Shohruhmirzoga Arab tilidagi “Yo’llar va mamlakatlar kitobi” yoki ikkinchi nomi “Iqlimlar surati” nomli kitob taqdim etdilar.

Shohruh uni Hofizi Abruga Fors tiliga tarjima etishni topshiradi. Olim bu kitobni tarjima qilar ekan, Sharqdagi Mutarjimlik qoidasiga amal qilib, o’zining ko’rgan, bilganlarini va Xitoyga elchi sifatida borgan G’iyosiddin Naqqoshning xotiralarini, bir qism Amir Temur yurishlarini ham qo’shadi. Natijada yangi bir asar “Zubdot at-Tovurih” tarixlar qaymog’i vujudga kelgan. Asarda Dashti Qipchoq, O’zbeklar diyori Movarounnahr shahar va viloyatlarining geografik tavsifi berilgan. Viloyatimizning yirik manzillari Kesh va Qarshining ta’rifini shunday keltirgan. Kesh uni Shahrisabz ham deydilar. Eni 3 farsang bo’yi 3 farsang yaqinida tog’ bor. U tog’da harsangtuz bor, tiniq ba’zan rangdor Keshning har xil mevalari ko’p, ko’pgina mevalar unung chegarasidan chiqariladi. Kesh Movarounnahrning issiq joyi. Naqshob, Kesh atrofida uni Nasaf ham deydilar. Hozir Qarshi nomi bilan mashhur. Bu qadimiy shahar bo’lib, tekis yerda joylashgan. Undan tog’gacha ikki kunlik yo’l. Boshqa tarafdin to Jayhunga qadar cho’l. Kesh suvidan boshqa daryo yo’q. Podshohning qasrini turkiy tilda Qarshi deyiladi.

Hofizi Abruning bu asarida boshqa nomlarning ham izohi berilgan. Bordog’iy Jayhun Qanoriyda, Termiz mavzeylariga tutash, Bo’rdogiy yunoncha so’z bo’lib, Iskandar zamonasida atalgan “Mehmonxona ma’nosini bildiradi”, Panjob haqida shunday yozadi. Xudlon va Vaxsh chegarasida beshta daryo qo’shilib bu mavzeyni Panjob deb ataydilar. Hozirgi Amudaryoning Vaxsh daryosigacha bo’lgan bo’lagi Panj daryosi nomini Hofizi Abri tomonidan shu tariqa to’g’ri izohlangan. Abdurazzoq Samarqandiy Shohruh saroyida tarixchi olim va davlat arbobi, elchi vazifalarida xizmat qilgan. “Ikki saodatli (Yuldiz)ning balqishi va ikki dengizning qo’shilishi” nomli mashhur asarini bir qismi 1441-1442 yillarda Hindistonga Xuroson elchisi sifatidagi sayyohlar ta’surotini o’z ichiga oladi. Asar chinakkam tabiat hodisalari tasvir etilgan. Geografik taqdiqot bo’lib, unda Hindiston va uni o’rab turgan hind okeani geografiyasi va tabiat sharoiti haqida mukammal ma’lumotlar

keltirilgan. Asarda Bodxez, Qoraqum va geografik ob'ektlarning toponimik izohi ham o'z tarifini topgan. “Bodxiz qirlari ko'klam chog'lari go'zal qizning jamolidan ham tozaroq, bahr oluvchi va ma'shuqaning vadasidan ham yoqimliroqdir” deb yozadi. Hofizi Abru, A. Samarqandiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi kabi o'rta asrning yirik olimlari va ularning bashariyat uchun qimmatli asarlari Temuriylar hukmronligi davrida ilm fan rivoji uchun to'la shart sharoit yaratilgan degan ijod ahli doimo qo'llab quvvatlangan degan xulosa chiqarishga imkon beradi.

O'rta asr sharqning olimi, shoiri, tarixchisi, sarkardasi va Hindistonda 150 yildan ortiq hukmronlik qilgan Boburiylar saltanatining asoschisi bo'lgan Bobur bor yo'g'i 49 yil umr kechirgan. Boburning hindistonliklar tomonidan hurmat bilan tilga olinishining sababi shuki u Hindistondagi feodal tarqoqlikka barham berdi. Boshqa ellardan kelgan istilochilardan farqli ravishda hech narsani Hindistondan olib ketmadi. Aksincha, bu elda hozirda odamlarning hayratga solgan oliy imoratlar barpo etdi, ilm-fan, memorchilik, dehqonchilikni rivojlantirishga ahamiyat berdi. “Boburnoma” hozirgi O'rta osiyo, g'arbiy Xitoy, Eron, Ozarbayjon, Afg'oniston tarixiy geografiyasi, tarixiy voqealarining qariyb 100 yilga yaqin davri haqida ma'lumot beruvchi qomusiy asar bo'lishi bilan birga birinchi marta eski o'zbek tilida bitilgan juda katta hajmdagi nasriy tarixiy geografik asar bo'lishi bilan ahamiyatlidir, zero bundan oldin bitilgan asarlar asosan fors va arab tillarida ona tilimizdagilarning ko'pchiligi badiiy dostonchilik yo'nalishida bo'lgan. Ayni vaqtda “Boburnoma” eng atamashunoslik va toponomik manba hamdir. Unda yer, suv, havo va turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi. Masalan, “tog'dagi g'or va kovaklarni havol derlar” “Hidi yaxshi o'langni quruq qilurlar” “tup tuz yer, ne tog' va ne pushta ko'rinadur” “Pushtalardan va qo'llardan tuzgi chiqg'och”, “chopqin bilan yog'ar edi” iboralaridagi so'zlar o'z o'zidan izohlab berilgan. Guzor kichik daryodan o'tadigan joy, jilg'a kichik soy, daryoccha nayshakar-shakarqamish, pushta –tepa, balandlik, qirlar, tangi-dara, tog' oralig'idagi yo'l, chuqur daryo vodiysi, uchma

chuqur jar yoqasi, tik yonbag'ir, o'lan-o'tloq yer, keng maydon, suv yoqasi-qirg'oq, chuqur-toshqo'rg'on, yayloq-yaylov, keng dala.

Boburnomada qo'l so'zi ikki manoda ishlatilgan, biri suv qozg'onjarlar, ikkinchisi daryo irmog'i. Asarda daryolarda suvning kamayishini suv kichik bo'lganda, suv toshqinini esa, suv kirganda deb ataydi. Davonlarda qor bosib qolishini-yo'llar bog'lanur deb, daryolar qoshilishadigan joyni suvning qotilishi (aralashuv) deb ifodalaydi. Shuning uchun Rud-daryo, yakraxa-yolg'iz oyoq yo'l, kohpoya-tog' etagi, shohijo'ytarmoq (shoh ariq) deb turkcha so'zlarning tojikcha sinonimini ham ishlatgan. Bobur har bir tilni hurmat qilgan, til boyliklardan unumli foydalangan, forsha, afg'oncha, hindcha atamalarni dadil ishlatavergan. Ba'zan ularga izoh ham bergan. "Boburnoma" XVI asr boshidagi joy nomlari (bir mingdan ziyod) o'sha davr holatida va transkripsiyasida bergan. Bu nomlarning ko'pchiligi ba'zi fonetik o'zgarishlar bilan shu kungacha mavjud. Ba'zilar unitilib ketgan. "aksi-kitoblarda Aksikat bitiklar" "Toshkent viloyati... kitoblarda shosh bitiklar ba'zan choch bitiklar" "o'ratekaxim, asl oti kitoblarda Usrushna va Usrush ham bitirlar", "Kesh shahrini Bahorlar sahrosi va shhri va boshi va batamom xob sabz bo'lir uchun Shahrsabz ham derlar" "Ko'pdibodom bodom yaxshi bo'lur. Bu jihatdan bu ismga mavsumdir." "Bu tog'da qor hargiz o'ksimas, bu jihatdan g'olibo Kohi Safiz (Oq tog')derlar" "Afg'on ko'talni(davonni band derlar, G'or sari bu ko'tal bilan borurlar g'olibo ul Jahotdan G'orband derlar). Asardagi nomlar izohi orqali ko'pgina joylarning ma'nosini tushunib olish mumkin. Hindiqush tog'laridan bir ko'talning nomi To'l deyiladi, bu eng yaxshi dovon bo'lsa ham, yo'li uzoq ekanki, nomi shunga yarasha to'l-uzoq (geografik uzoqlik sharqda to'l deyilgani ma'lum.) "Boburnoma"da Himolay nomi uchramaydi, ammo Himolay etaklarini "Sivolik Parvoz"derlar hind tilida siva-chorak vaqt yuzming tog'kim, yuzyigirmabeshming tog' bo'lgay, deb izohlagan. "Kashmir" tog'da yashovchi kas qabilasi nomi bilan bog'liq ekanligini yozadi. Agra yonidagi bir darvoza nomi Hotaypul deyiladiki Hindlar Xitoy deb filni, pul darvoza-filda darvozasi deyilishi sababiga darvoza chiqishidan fil rasmi

chizilgani tufaylidir. “Boburnoma” o’sha davrlarda qo’llanilgan o’lchov birliklari ham izohlangan. “Yig’och–8 km, Kiruh-2,5 km, sha’ri-2,4 km, bir o;q otim yer–110-125m, quloq-120 sm, bir kunlik yo’l 40-45 km, tushlik yer–yarim kunlik masofa va boshqalar ishlatilgan.”

“Yana Qarshi viloyatidirkim Kamobroq yerdir. Bahori ho’p bo’lur, Samarqanddan janub saridir. Bir nima g’arbga moyil, 18 yig’och yo’ldir.” Hozirgi masofasi ham 144 km aniq bo’lib chiqadi.

“Kushak suyi shimolidan oqar. Samarqanddan ikki kiruh bo’lg’ay-denak Samarqanddan Zarafshongacha 5 km, bu masofa ham ancha aniq. Bunday misollar shuni ko’rsatadiki Bobur asarlaridagi geografik voqeyliklar aniqlik bilan berilganligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. ”

“Boburnoma” ning chinakam geografik asar ekanligini, unda berilgan joylar tarifidan ham bilsa bo’ladi. Shahar va o’lkalarning geografik o’rni tabiiy sharoiti aholisi, xojaligi ma’lum tartibda tasvirlanadi. Tabiat boshqa hududiyligidan obyekt sharoiti bilan taqqoslanadi. O’simlik va hayvonlarning diqqatga sazovor turlariga ko’proq to’xtaladi. Biroq obyekt nomi tarixi bilan bog’liq, xalq orasidagi hikoyatlari rivoyatlari keltiralar.

Zaxriddin Muhammad Boburning geografik merosi uning tarixiy shariyat sohasidagi madaniy meroslari bilan qo’shilib qorishib ketganki, ko’p qirrali olim va shoir sifatida xalqimizning bu daho farzandi hammamiz faxrlanishga haqlimiz. Zero Bobur asarlari tengi yo’q xazina. Uning asarlarini o’qigan kishi ularda geografiya, biologiya, astronomiya va boshqa tabiat fanlariga oid boy daliliy ma’lumotlarga duch kelishi mumkin. Bobur sayohatchi, o’lkashunos, donishmand, tarixchi va tilshunos bo’lish qatorida joy nomlarining tarixi va manosini chuqur tahlil etgan toponimist nomshunos olim bo’lganligini his etamiz.

Badiiy adabiyotga doir merosda ham toponimika va biografik atamashunoslikka tegishli ma’lumotlar talaygina.

Alisher Navoiyning asrlaridagi toponimika va lug'atshunoslik haqida ba'zi mulohazalarni keltirib o'tamiz. Atrofni o'rab turgan tabiatning falsafiy mulohazasi bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

To'tti yashil ho'lla kiyar shevasi,

Tugmalari bo'ldi aning mevasi.

Bu paytda daraxtlar yashil libosga o'ralib, meva tugishi va tukgan tugmalarning mevaga aylanishi tabiatning muayyan qirrasini ifodalaydigan atamalarda badiiy vositalar orqali ta'sir etilmoqda.

A.Navoiy kurrai zaminimizni naqadar aniq tasavvur etganligini geografiya tayanch atamaları va tushunchalari—yo'l, orol, dengiz, shamol, osmon va boshqalarni o'z o'rnida bir necha muqobil variantda ifodalanganligini ko'ramiz. "Layli va Majnun" dostonining na'fol qizining Majnun bilan nikohlash marosimini quyidagicha ta'riflaydi.

Oy bilan quyoshni ayladi naqd,

Boshi uzra sochdilar base naqd.

Chun mehr kelish kibi yoshundu,

Tun yerga kuyav kibi bexundi.

Gardur ko'ribon bu ish muofiq,

Kelturdi to'qqiz taboqda sochi

Bu tasavvurdagi kelinni oyga, kiyovni quyoshga o'xshatishi mehrning kelindek ichki hisligi, kiyov ta'zimining gulning yer yuzasiga tegib turishi naqadar yuksak badiiy ifoda ekanligini ko'ramiz. Ayni chog'da bu yerdagi tabiiy fan atamaları orqali tabiiy hodisalar mohiyati chuqur idrok etilib, mohirlik bilan o'z o'rnida ishlatilganligini ko'ramiz. Alloma shoir tabiatidagi bitta hodisa yoki jarayonning turli holati va qirralari xalqda ishlatilgan so'zlar bilan izohlanishini ko'rishimiz mumkin. Shamolning tezligi qaysi vaqtda bo'lishi—yel, sabo, nasim, bod, shamol, dovul, bo'ron, to'fon kabi atamalar bilan, osmonning holati ko'k gumbazi, shamol ayvoni, osmon, samo, gardun, sipehr so'zlari bilan sifatlanganlik va real voqeylik jihatlarini ko'ramiz.

Geografik nomlar Navoiy dostonlarining badiiy yuksaklik va real voqeylik Movarounnahrning geografik o'rnini—oqib hadi sharqida Sayhun suvi. Borib hadiya g'arbida Jayhun suvi deb “Saddi Iskandariy” dostonida tarannum etiladi.

Kovakibganib yeti taqsim erur,
 Jahon mulki ham yeti iqlim erur.
 Xuroson badandir Xiriy jon anga,
 Xirijiy jon badandir Xuroson anga.

Demak odamlar yashaydigan dunyo yettiga taqsim qilingani ular yetti iqlim atalishi Navoiyning dunyoni aniq ilmiy tasavvur etganligini ko'rsatib, “Ruboiy Maskun”—obod yerlarni yetti iqlim, kavokib atamaları bilan ifodalangan. Xuroson mamlakati dunyoning obod o'lkasi (Xuroson lug'aviy ma'nosi “Quyosh yurti” demakdir.) dunyoning jasadi bo'lsa, Xirot shahri, bu jasadning jonidir deb ham badiiy ham ilmiy jihatdan aniq ifodalaydi.

Bo'lu yuz pushta xamuk sel chog'i,
 Turar o'z o'rnida Alburuz tog'i.

“Farhod va Shirin ” dostonida keltirilgan bu baytlar Eronning Kaspiy dengiziga tutash Elburus tog'ining dengizga tutash shimoliy yon bag'ri nam subtropik iqlim sharoitiga ega. Dengizdan esgan namli havo nihoyatda seryog'in bo'lganligi—yuzlab pushtlar—tog' tarmoqlaridan tashkil topgan bo'lsa-da juda kuchli yomg'irda ham o'z o'rnida turib namli havo massasini janubga o'tkazmaydi, natijada shimoliy yon bag'ir sernam subtropik iqlim bilan xarakterlanishi badiiy tasvirlanmoqda.

Ulug' shoirning “Sababi Sayyoz” dostoni o'z mazmuni bo'yicha badiiy geografik tasvir deyish mumkin.

Dedilar Kishvadi durur dilkash,
 Oti ham Shahrsabz erur, ham Kesh.
 Xizr monand Sabzadan rangi,
 Sabzasi suvi ko'rgusi rangi.
 Shahrsabz o'ldi bizga chin mulkat,

Yo'q ajab gar yashil dirur kisvat.

Insoniyatga Amir Temurdek shaxsni bergan. Shahrsabzni badiiy yuksak tabiati hayotining o'zidek yashil (o'sish–rivojlanish) shahar ekanligini rangin bo'yoqlarda real voqeylik orqali tarannum etmoqda. Getersifik atama va grafik nomlar “Xamsa” dostonlarining mazmunini tashkil etadi. Orol mamlakat tog', dengiz, shahar, yo'l, bandor va boshqa geografik atamalar orqali voqealar mohiyati, hikoyatlar yo'nalishi ochib beriladi.

Yana yuz ming o'zbek mo'g'ul birla zam

Yuz ellik ming sari qalmoq ham

Bo'lib barchasi olti yuz ming kishi

Bariga hunar qabila razm ishi

Yasab Chin elin turkiy chiniy Sirisht

Tarovatda andog'ki bog' behisht

Darhaqiqat o'zbek, rus, mo'g'ul, qalmoq va boshqa ellar xalqlar Eron, Turon, Dashti Qipchoq, Chin hind kabi mamlakatlar ko'p bora tabiatiga mos ravishda Navoiy asarlarida tasvir etilganligining guvohi bo'lamizki, ulug' shoir geografik nomlar tasvir etilayotgan vohaning o'ziga xosligiga kuchaytirish uchun foydalangan.

Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostoni ham sharq geografiyasi, xususan O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasini tasavvur etishda muhim manbaadir .

Qarshining qushlari bisyor bo'lur

Qushchining tumosi tayyor bo'lur

Turna-yu g'oz farovon asru

Qirg'ovul bog'larida sonsiz.

Demak, bu parchada Qarshining qushlari ko'p va turli–tuman bo'lishi ayniqsa tus tovuq, qirg'ovul, qarchig'ay, turna va g'ozlarning bisyorligi tanitilmoqda. Viloyatimizning Kesh, Kaspi, G'uzor kabi shaharlari Qarshi shahrining Qashqadaryo, Surxandaryo, Janubiy Tojikiston, sharqiy Turkmaniston, shimoli Afg'oniston uchun muhim strategik o'rni qayta–qayta ta'kidlanmoqda. Shunday qilib, geografik tasavvur,

geografik nomlar atamalar va ularni muayyan joy tabiati bilan bog'liq tasvirlash yirik asarlari uchun xos xususiyatdir.

Tarixiy sarguzasht va lug'atshunoslik asarlari toponimik manbalar sifatida.

Umumiy tarix tipida yozilgan asarlardan biri Ma'sud Usmon Ko'hisoniyning "tarixi Abulhroniy" bo'lib, unda XV asrning ikkinchi yarmida Sibir, Ural va O'rta Osiyoning hududida o'zbeklar davlatini tuzgan. Abulxayrxonning xonlik tarixi bayon etiladi. 1428–yilda Abulxayrxonning xonlik mansabiga ko'targan 30 ga yaqin qabilalar sanab o'tiladi. Burxut, Jot, do'rmon iyjon, qoonboyli, qorlik, kengashi qiyot, qo'ng'iroq, mang'it masshtab, Nukus, uyg'ur, uyshun, o'rtachi, chimboy. Asarning hozirgi o'zbeklar tarkibiga kirgan urug' va qabilalar yashagan tarixiy davr, bu davrda mavjud bo'lgan geografik nomlar nuqtai nazaridan ahamiyati kattadur. Sanab o'tilgan qabilalar va urug'lar hozirgi kunda o'zbek millati tarkibida shevalari ayrim urf-odatlarini saqlagan holda yashab ayrimlarning nomi sifatida geografik xaritalardan mustahkam o'rin olgan–Qo'ng'iroq shahri mang'it, Chimboy quronlari, Nukus shahri va viloyatimizdagi Nukus qishlog'i Qiyot, Qorliq, Uyshun, masit nayman, saroy qishloqlari–o'zbek urug'lari nomi bilan ataluvchi etnonim ekani hech kimda shubha tug'dirmaydi. "Tarixi Abulxayrxoniy" asarida Sirdaryoning o'rta oqimidagi Sig'noq, Sarvon, Suzoq, O'zgand, Oqqo'rg'on, Arhuh va boshqa shaharlar nomi va geografik o'rni haqida ma'lumotlar beriladi. Ushbu asar o'zbek ulusi bilan Temuriylar davlati o'rtasidagi munosabatlarning tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega ekanligini eslatib o'tamiz. Ulug'bekning fojiali o'limidan (1449-yil 25-oktabr) so'ng Temuriy Mirzolar o'rtasida toju taxt uchun kurash benihoyat kuchayadi. Xoja Abdulloh Axrorning maslahati bilan Sulton Abusaid Sing'oqqa Abulxayrxon huzuriga yordam so'rab boradi va uning bevosita qo'llab quvvatlashi bilan 1450-yilda Abusaid Mirzo Temuriylar saltanatini qo'lga kiritdi. O'shanda Abulxayrxon marhum Ulug'bek Mirzoning qizi Robiya Sulton begimga uylanib qaytdi. Abulxayrxon Robiya Sulton begimdan ikki o'g'illik bo'ldi. Ko'chkinchixon va Suyinchixo'ja Mirzo Ulug'bek nabiralari.

Mashhur turkiy zabon shoirlardan biri Kamoliddinxon Binoyining “Shayboniynoma” asari Shayboniynxon yoshligida buxoro madrasasida taxsil olganligi shoirning o’zi Xirotdan Samarqandga ,Temuriylar saroyidan Shayboniynxon saroyiga kelib qolishi kabi qimmatli tarixiy ma’lumotlari bilan birga juda ko’p shaharlar masalanxarodning vaizr Adoh ,Bo’ldimshoh shaharlari haqida ham ma’lumot berishi bilan ahamiyatlidir.

Tarixchi Abulxayr Fayzulloh Ro’zbehonning “Mehmonnomai Buxoro” asari ham geografik toponimika jihatidan muhim manbaa hisoblanadi. Dashti Qipchoq dagi o’zbeklar uch toifaga bo’lganlar. Shayboniylar ya’ni jochixonning beshinchi farzandi Shaybon naslidanbo’lgan erur va qabilalar. Qozoqlar, ya’ni Abulxayrxon hukmronligining so’ngi davrida Shayboniylardan ajralib chiqib Dashti Qipchoq sharqiy rayonlari-cho’l va Quziboshiga ko’chib ketgan turk-mog’il qabila Mang’itlar.

Asar muallifi asarning bir bobida Sayhun daryosi, Turkiston diyorining tavsifi Arhuq qal’asining tarifini keltiradi.”turkiston iqlimi barcha iqlimlardan a’lo iqlim” Turkistonga 30 ta qal’a qaraydi. “Sirdaryo” jannatdan chiqqan daryolardan biri bo’lib, uni xo’jand daryosi , o’zbeklar va mo’g’illar sir deb ataydilar. Uzunligi 300 farsak deb nomlarni toponimik izohini keltiradi. Dashti Qipchoq ning sathi 600 farsak daryolari va ko’llari ko’p,ob-havosi yaxshi, chorva boqish uchun moslashgan. Yaylovlar sultonlar va qabila boshliqlari o’rtasida qat’iy taqsimlangan. Dashti Qipchoq xalqi namat bilan o’ralgan maxsus aravalarda istiqomat qiladilar, janubdan shimol sari ko’chib yuradilar. Yozni Itil (Volga) Tobol daryolari bo’yida qishni esa sohilda o’tkazadilar. Bu malumotlarni Shayboniynxon Ruzbehonga qo’shni O’grar shahri to’g’risida turgan paytda aytib bergan. Tarixdan ma’lumki Muhammad Shayboniynxon shoir va o’qimishli donishmand hukmron bo’lgan. Keltirilgan ma’lumot Dashti Qipchoqning tarixiy geografik o’rnini belgilashda juda muhimdir. “Mehmonnomai Buxoroda ” Samarqand dan Qarshiga jo’nab ketish Qarshi bilan Samarqand oralig’idagi manzillar haqida ma’lumot beriladi. Qohi Mohiyon

(Samarqanddan ikki farsak masofada) Qohlik (beshfarsak) Damashq Oqcha Buho haqidagi fikr yuritilgan. Oqcha Buho yaylov Qarshi chorbog'i, bu yerda Shayboniyxon qurdirgan qasr haqidagi tarixiy geografik ma'lumotlar toponimika uchun ahamiyatlidir. O'rta Osiyo, Qozog'izton, Sarqiy Turkiston shuningdek ulrning shahr va yirik geografik ob'ektlari haqida 1541–1545 yillarda Kashmirda yozilgan “Tarixi Rashidiy” asari muhim manbaa hisoblanadi. Boburning xolavachchasi Mirzo Muhammad Xaydar bu tarixiy geografik asarning muallifidir. Toshkentda tug'ilgan Toshkent xoni Yunusxonning nevarasi bo'lgan Muhammad Xaydar Mirzo Dug'latning otasi Toshkent va O'rtatepa shahrining hajmi bo'lgan olimning otasi Husayn Kuragon Sayboniyxon buyrug'iga ko'ra Xirotda 1908 – yilda qatl etilgan. Hayotining hayoti xavf ostida bo'lgani uchun otasining do'stlari Buxorodan Qobulga yashirin olib ketgan. Bobur bilan birga bo'lgan Qashqar, Yorkent, Oqsuv, Mo'g'iliston, Hindiston, Kashmir yerlarida turli vazifalarda ishlagan. Qashqar va Yorkent hokimi Abdurashidxonga bag'ishlab yozilgan bu asarning nomi “tarixi Rashidiy” shundan Haydar mirzoning geografik saviyasi bilan bo'lgan. Issiqko'lni chirpyli badiiy ta'riflab, uning oqmas yo'l ekanligini yozadi. Balxash (Ko'kcha dengiz) yo'lini o'lchamlari Kashmirning mukammal tarifi, Tebetning “xaloy”iqning kam yetishi kabi geografik ob'ektning chinakkam izohini keltiradi. Hofiz Tonish Buxoriyning “Sharafnomai shohiy” nomli asari Buxoro xoni Abdullahon ikkinchining tarixi bo'lishi bilan birga O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi shahar va boshqa ob'ektlarning bayoni berilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mahmud ibn Valining “Sirlar dengizi” o'rta asrning eng so'ngi chinakkam geografik asardir. Masalan “Xuroson–to'rt viloyatga bo'linadi–Hirot, Nishopur, Balx va Marv... Xuroson Eroniy so'z bo'lib, Xuroftob son yer ma'nosidadir” deb izohlaydi olim Shayx Sulaymon Buxoriy ham sayyoh ham lug'atchi olimdir. Uning lug'ati Chig'atoy va Turkiy Usmoniy geografik atamashunoslik va toponimik jihatdan qimmatli manba hisoblanadi. Bundan 150 yillar ilgari yaratilgan bu asar geografik nomlar lug'ati sifatida tarixiy geografiya uchun o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Masalan “Andijon, Farg’ona qit’asida mashhur bir balda ismidir, nomi qadim Odoqdir”. Xorazm chegaralari avvalgi poytaxti ko’hna Urgench hozirgisi Xivoh dir deb aniq yozadi. Arno–ariq, o’g’och masofa o’lchovi ,quyar ikki suvning quyilishi ,oyoz–sof, shaffofoyli ko’cha, qoq–suv to’planadigan joy, selob yomg’iri kabi atamalarning izohi lug’atini tuzgan. Qori Raxmatullox Buxoriy 1886 – 1887 yillarda Turkmaniston, Eron, Kavkaz, Turkiya, Arabiston, Iroq sayohatida bo’lib qaytgan yo’l xotiralari maxsus asar va risolalar tarzida tartib berilgan.

Joy nomlari va geografik obyektlarning atoqli otlari hamma vaqt muayyan informativ – axborotlar manbai hisoblanadi. Buning ustiga XX asr boshlarida qator fanlar alohida ilmlar sohasi sifatida shakllanib, ularning muayyan tushuncha, qonun va qoidalarni ifoda etuvchi ilmiy termin, so’z, iboralarni lug’aviy jihatdan izohlash ko’p tartibga qo’yilgan. O’zbekistonda tabiiy fanlar–geologiya, geografiya, geomorfologiya, biologiya, biogeografiya, tuproqshunoslik, fizika, kimyo va boshqa ilm sohalarida yangi termin paydo bo’ldi. Bu ilmiy ifodalarning o’zbek tilida mazmun –mohiyatini aks ettirgan ekvivalentlik muhbilini topish va izohlashga ehtiyoj kuchaydi. Tilning lug’at tarkibiga kirgan bunday ilmiy atamalarni tilshunoslik qonun –qoidalari asosida izohlash ilmiy atmashunoslikning vujudga kelishiga olib keldi.

Geografiya va umuman yer haqidagi ilmlarda qo’llaniladigan o’zbek tilidagi so’z va iboralarni shu bilan birga boshqa tillardan kirib kelgan so’zlarni o’zbek tilining lug’at boyligi asosida aniq so’z birikmasi bilan ifodalash masalasida o’zbek ilmiy merosimizning bilimdoni va targ’ibotchisi H.hasanovning ishlari alohida ahamiyatga ega. Qomusiy ilmlar sohibi bo’lgan ustoz H.Hasanovning 1964-yilda “Fan” nashriyotidan “Ruscha–O’zbekcha va o’zbekcha–ruscha geografiya terminlari” kitobi beqiyos ahmiyat kasb etadi. Kitob geografiya va boshqa tabiiy fanlar uchun manbaa bo’lish qatorida o’zbek tilida lug’atlar yaratish tarixi bo’yicha ma’lumotlar beruvchi manba hamdir. O’zbek tilida dastlab lug’atshunos olim. Odam Ibrahimov “Geografiya atamaları” nomli kitobini O’z.Dav.nashriyoti (Toshkent 1935) yozib chop ettirgan. Kitobda geografik nomlar bilan birga yonma-yon geografik terminlar ham berilgan.

Shunga qaramay bu lugʻning oʻzbek tiliga chop etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. 1940–yilda prof. Malitskiy ruscha oʻzbekcha terminlar lugʻati, Bektemurov, Saidrasulov

Toponomiklar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma soʻzlar singari til qonuniyatlariga boʻysunadi, lekin oʻzining paydo boʻlishi va baʼzi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va maʼnaviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador boʻlib, maʼlum darajada boshqa guruh soʻzlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponomiyada milliy tilimizga xos boʻlgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlardan koʻproq saqlangan boʻladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashgʻuloti, qazilma boyliklari, taraxiy shaxslari va voqealari toponomlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi.

Toponomlar yirik yoki mayday obyektlarning nomlari ekanligiga qarab makrotoponimlar va mikrotoponimlarga ajratiladi.

Makrotlar, keng hududlar, katta obyektlar-materiklar, okeanlar, togʻlar, choʻllar, daryolar, shaharlar, qishloqlar va ijtimoiy kenglikning atoqli otlari hisoblanadi.

Mikrotlar-kichir obyektlar-jarliklar, tepaliklar, quduqlar, koʻchalar, qoʻrgʻonlar va ijtimoiy kenglikning atoqli otlari hisoblanadi. Lekin toponomlarni bunday tasnif qilish shartli, chunki koʻpincha makrot bilan mikrotoponimni farqlash qiyin.

Turli til geografik obyektlarni atovchi nomlarning kategoriyalariga muvofiq ravishda toponomikaning quyidagi boʻlimlari ajratiladi.

1.Oykonimlar-aholi yashash maskanlari va ularning qismlari: qishloq, mahalla, guzar, koʻcha, ovul, qoʻrgʻon nomlarini oʻrganuvchi soha: Boʻston, Guliston, Dehqonobod. Oykonimlar joy nomlari orasida alohida gruppani tashkil etadi. Qayd etilganidek, aholi punktlari va uning ichki boʻlishlari-qishloq, posyolka, ovul, mahallla, guzar, koʻcha nomlari oykonimlar deb yuritiladi. Oykonimlarning oʻziga xos xususiyatlari sifatida shuni aytish lozimki, territoriya tarixiga oid baʼzi maʼlumotlar oykonimik nomlarda yaxshi saqlanib qolgan.aholining oʻtmishdagi etnik

sostavi qaysi urug, qabila, qavm, toifaga mansubligi, iqtisodiy turmush sharoiti-qanday kasb-hunar bilan shugullanganligi shuningdek obyektning biron kishiga qarashlilikini ifodalovchi oykonimlar fikrimizning dalilidir. Bundan farqli ravishda toponimlarning boshqa turlarida chunonchi gidronim va oronimlarda etnik nomlardan kishi ismlarida yasalgan, toponimlar bir muncha kam uchraydi.

Oykonimlar ba'zilarining nomi vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, bu hodisa aholi punktlari jamiyatning ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy madaniy hayoti, turmush darajasi bilan boglik ekanligini korsatadi. Darhaqiqat, jamiyatdagi ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy madaniy o'zgarishlar ko'proq oykonimlarda aks etadi. Ulug' Oktyabr socialistik revolyutsiyadan keyingi davrda bir qator qishloq nomlari yangi nomlar bilan almashtirildi. Ilgari Yalangoch, Kalamush, Mozorqishloq (Buvayda rayoni), Mozorbobo, Kallakesar, Olabaytay (Frunze rayoni), Makiyon, Qumoxta, Janjal (Qirov rayoni), Sichqon, Qirqiboldi (Bag'dod rayoni), Tashat (Leningrad rayoni) deb atalgan qishloqlar hozirda Bo'ston, Guliston, Inqilob, Doimobod, Paxtaobod, Kengash, Nabiqishloq, Dehqonobod, Ittifoq, Dehqonqishloq, Mirzaobod, Oq oltin nomlari bilan yuritilmoqda.

2.Etnonimlar-urug', qabila, millat, xalq nomlari asosida yaratilgan aholi punktlarining atoqli otlari etnooykonimdeb yuritiladi: Oqbo'yra, Bachqir, Qoratikon.

O'zbekiston geografik nomlari sistemasida etnooykonimlar katta o'rinni egallaydi. urug', qabila, millat, xalq nomlari asosida yaratilgan aholi punktlarining atoqli otlari etnooykonimdeb yuritiladi. Etnooykonimlar tildagi eng qadimgi toponomik qatlamlardan hisoblanadi. Ular uzoq tarixiy davrning yodgorligi bo'lib, ma'lum xalqning taraxini, etnik sostavini o'rganishda, ularning tarqalish chegarasini ko'rsatishda va aniqlashda muhim manba sifatida g'oyat qimmatlidir.

Ma'lumki, boshqa turkey xalqlar kabi o'zbek xalqi ham ma'lum urug'-qabilalardan tarkib topgan. Shuni qayd etish lozimki, hozirgi paytda o'zbek xalqining ko'plab urug' qabilalari nomlari unutilib yuborilgan. Lekin ularning katta

qismi bugungi kunda ham respublikamiz territoriyasidagi joy nomlari tarkibida yashab kelmoqda. Quyida ularning ba'zilar haqida fikr yuritamiz.

Qipchoq qabilasi o'zbek elatining eng katta va asosiy qabilalariga kiradi. Ko'psonli mazkur qabila ko'pgina turkiy xalqlar: o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'izlarning etnik sostaviga kirib, ularning millat bo'lib tashkil topishida qatnashgan. O'zbekiston territoriyasida qipchoqlar Samarqand bilan Kattaqo'rg'on o'rtasidagi rayonlarda, Amudaryoning o'ng sohilida, Farg'ona vodiysining shimoliy-sharqiy va shimoliy –g'arbiy qismlarida o'troqlashib qolganlar. Etnograf olim Karim Shoniyozovning yozishicha, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Farg'ona vodiysidagi qipchoqlar 70 ming kishini tashkil etib, ular bir necha urug'larga: qo'g'ay, bug'ach, kumushoy, o'lmas, yashiq, jaydoq, puchug'oy, elaton, bugaz, ogim, toz, sirmoq, ettiqashqa, qutlug'said, cherik, ko'kbo'yin, to'rayg'ir, tovuldi, chang'aroqchi, chiyal, qulon, oqbo'yra, qarabovur, boshqirt, tikon, qora tikon, sariqipchoq, qora bo'yin singarilarga bo'lingan edi. Hozirgi vaqtda mazkur qipchoq urug'lari nomining ko'pchiligi ular yashagan territoriyalarda aholi punktlarining nomlari sifatida saqlanib qolgan. Chunonchi, Farg'ona oblastining Qirov rayonidagi Qorabo'yin, Tovul; Frunze rayonidagi Turayg'ir, Yashiq, Qizilmush; Buvayda rayonidagi Bachqir; Leningrad rayonidagi Puchug'oy; Andijon oblastining Qo'rg'ontepa rayonidagi Oqbo'yra, Izboskan rayonidagi O'lmas, Uchqo'rg'on rayonidagi Qo'g'ay, Qo'g'ayo'lmas. Qo'g'aymahalla, Elaton, Ettiqaqsha va Pop rayonidagi Qoratikon qishloqlarining nomi shunday atamalar jumlasiga kiradi.

3.Antroponimlar- kishi ismlari, laqablari, taxalluslar, familiyalardan yasalgan turar joy nomlari antroponimlar deb ataladi: Yo'ldoshobod, Yusufqo'rg'oncha, Mallaxon, Qurbonqashqar, Karimdevona, Murodko'sa.

Antroponimlar, ya'ni kishi ismlari, laqablari, taxalluslar, familiyalardan yasalgan turar joy nomlari antropooykonimlar deb ataladi. Chunonchi, Yusufqo'rg'oncha, Yo'ldoshobod, Karimdevona, Murodko'sa, Qurbonqashqar, Mallaxon singari qishloq nomlari va boshqalar. Antropooykonimlar juda uzoq tarixiy

davr mahsuli bo'lib, ularning vujudga kelishi ham ancha qadimiydir. Bu turdagi toponimlar jamiyatda sinflarning paydo bo'lishi, quldorlik tizumining yuzaga kelishi bilan yaratila boshlandi. Xususiy mulkchilikka asoslangan feodalizmning shakllanishi bunday nomlarni yanada ko'paytiradi. Yerning har bir parchasi kimningdir xususiy mulki bo'lgan bir paytda, tabiiyki, uning egasining nomi asosiy farqlovchi belgiga aylanadi. Natijada, joylar katta yer egalari-feodallar, urug' va jamoat boshliqlari, mahalliy hukmronlar nomi bilan ataladigan bo'ldi.

Respublikamiz bo'yicha to'plangan faktik materiallar shuni ko'rsatadiki, o'tmishda kishi atoqli otlarning joy nomiga aylanishi turli xil usullarda yuzaga kelgan. Ularning eng muhim turlari quyidagilardir:

1.Kishi ismining o'zi bilan atalgan oykonimlar. Bunga ko'ra shaxs ismi hech qanday qo'shimcha element qabul qilmasdan joy nomiga aylanadi. Masalan, Shokirboy, Maqtosim (Moskva rayoni), Mamayusup (Baliqchi rayoni), Shomat (Marhamat rayoni), Mirzaqul (Ishtixon rayoni), Xudoyberdi, Sotiboldi (Paxtachi rayoni), Do'stmat (Baxmal rayoni), Sobirjon, Bekmurod (Leningrad rayoni), Islom, Sulaymon (O'zbekiston rayoni), Nabi, Kimsan (Qirov rayoni), Salim, ro'ziqul, To'raqul (Quva rayoni), Tangriqul, Rahmatullo, Shopo'lat (Frunze rayoni), Nodirmat (Oxunboboyev rayoni) va boshqalar.

2.Kishi ismlari va unga qo'shilib qo'llangan titul nomidan iborat oykonimlar: Badalboy (Lenin rayoni), Ahmadbek (Moskva rayoni), Alixon (Chortoq rayoni), O'rmonbek, Olimbek (Baliqchi rayoni), Shodmonbek (Paxtaobod rayoni), Jalabek, Jiyanbek (Oltinko'l rayoni), Hsanboy (Toshkent rayoni) Shoyimbek, Mallaxon, Botirxo'ja (O'zbekiston rayoni) Melixo'ja, Yodgorxo'ja, Azizxo'ja, Mo'minxo'ja (Kattaqo'rg'on rayoni), Avazboy (Rishton rayoni), Orifboy (Quva rayoni), Musobek (Frunze rayoni) cingarilar.

Mazkur oykonimlar kopincha shu oykonim ucnun asos bo'lgan shaxsning tarixda egallagan mavqeini eslatib turadi. Antropooykonimlar tarkibidagi shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi va sotsial ahvolini ko'rsatib turuvchi yuqori tabaqa vakillari manosi

yaqqol anglashiladi. Aniqrogi, bu so'zlar Ulug' Oktyabr sotsialistik revolutsiyagacha bo'lgan hayotning turli davrlari, o'sha davrdagi tabaqalanish, hokimlik munosabatlarining tildagi tarixiy izlari sanaladi. Ulug' Oktyabr sotsialistik revolyutsiyasidan keyingi davr o'zbek tili taraqqiyotida bek, xon, boy, xo'ja so'zlarida funksional o'zgarish yuz berdi, endi ular sotsial titullarni anglatmaydigan bo'lib qoldi. Hozirgi o'zbek tilida mazkur so'zlar affiksond sifatida erkalash, hurmat ma'nosini ifoda qiladi.

4. Titonomlar-o'simlik va daraxt nomlari bilan atalgan aholi punrtlari nomifitooykonimlar deb yuritiladi: Qatortol, Beshtarak, Olmazor, Anjirbog, Qo'shchinor.

Oykonimlarning bir guruhini osimlik va daraxt nomlari asosida yaratilgan atamalar tashkil etadi. O'simlik va daraxt nomlari bilan atalgan aholi punktlari nomi-fitooykonimlar (yunoncha fitos-o'simlik demakdir) ma'lum territoriyadagi o'simliklar dunyosining muhim xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bu turdagi joy nomlarining vujudga kelishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida qayd etilgan Oqterak, Olayig'och, Qorayig'och singari toponimlar bu fikrning yorqin dalilidir.

O'simliklar insoniyatning moddiy tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kishilarning hayoti va xo'jalik faoliyatida muhim rol o'ynagan. Tabiiyki, ular inson uchun xom ashyo manbai bo'lgan, chorva uchun mo'l-ko'l ozuqa bazasi hisoblangan. Shuning uchunham kishilar turli xil o'simlik nomlarini joy nomi tarzida qo'llay boshlaganlar. Bunday nomlar qabila va xalqlarning dehqonchilik, chorvachilik hayotida o'ziga xos mo'ljal (orientir) bo'lib xizmat qilgan. Shu yo'sinda mazkur tipdagi geografik nomlar paydo bola boshlagan.

Fitooykonimlar respublikamiz territoriyasida ko'p va xilma-xildir. Bu turdagi joy nomlarini atalishida o'simlik va daraxt turlarini ifodalovchi quyidagi so'zlar aktiv ishtirok etadi:

- 1) **jiyda so'zi:** Jiydaqishloq (Kirov, Leningrad, Kosonsoy, Paxtaobod rayonlari); Jiydamahalla (O'zbekiston, Uychi rayonlari); Jiydali, Jiydayo'li (Buvayda rayoni);
- 2) **tut so'zi:** Yakkatut (O'zbekiston, Kirov, Leningrad, Toshloq, Uychi, Norin, Moskva rayonlari); Sertut (Oltiariq rayoni); Tutzor (To'raqo'g'on, Uychi rayonlari);
- 3) **tol so'zi:** Tolqishloq (Kirov, Buvayda rayonlari); Yakkatol (Buvayda, Baliqchi, Pop rayonlari); Qoratol (Qirov rayoni); Beshtol, Qatortol (Jalolquduq rayonlari);
- 4) **terak so'zi:** Terakmozor (Farg'ona rayoni); Teraktagi (Quva, Toshloq, Andijon, Paxtaobod, Moskva rayonlari); Qatortarak (Izboskan, Bo'z, Moskva rayonlari);
- 5) **qayrag'och so'zi:** Qayrag'och (Leningrad, Quva rayonlari); To'pqayrag'och (Chortoq rayoni); Qayrag'ochovul (Zadaryo rayoni); Qayrag'ochto'pi (Norin rayoni)

Bulardan tashqari respublikamizda olma, o'rik, pista, anjir, shaftoli, yong'oq, bodom kabi mevali; chinor, archa, sada, to'rang'i singari mevasiz daaxt nomlari bilan, shuningdek g'umay, shuvoq, yantoq, ajirliq, tikon deb yurituvchi yovvoyi o'simliklarning nomlari bilan atalgan aholi punktlari ham mavjuddir. Toshkent oblastidagi Olmaliq, Boyovut, Chinoz, Kitob, Kattaqo'rg'on, Kosonsoy, Izboskan, Quva, Yangiqo'rg'on rayonlaridagi Olmazor, Zomin rayonidagi O'rikli, Chortoq rayonidagi O'rikzor, Andijon rayonidagi Pistamozor, Koson rayonidagi Pistali, Vobkent rayonidagi Anjirbog', Oltinko'l rayonidagi Shaftolizor, Buvayda rayonidagi Yong'oqlik, Xatirchi rayonidagi Yong'oqli, Sariosiyo rayonidagi Bodomiston, Chortoq rayonidagi G'aynolizor, Uzumzor, O'zbekiston rayonidagi Chinor, Urgut rayonidagi Yuqorichinor, Farg'ona rayonidagi Archa, Toshloq rayonidagi Sada, Chortoq rayonidagi To'psada, Qirov rayonidagi Chorvoqto'rang'i, Frunze rayonidagi G'umayli, Quva rayonidagi Shuvoqzor, Qirov rayonidagi Qorayantoq, Nurota rayonidagi Tikonli, Tomdi rayonidagi Ajirliq oykonimlari shular jumlasidandir.

Sebzor (Toshkent shahri), Olvalizor (Namangan shahri), Xoriston (Oltiariq rayoni), Chumoqcha (Rishton rayoni) oykonimlarining o'zagi tojikcha seb (olma), olvali (olcha), xop (tikon), chumoq (yong'oq) bo'lib, "olmazor", "olchazor", "tikonzor" va "yong'oqcha", "kichik yong'oq" ma'nolarini bildiradi.

Fitooykonimlar o'simlik yoki daraxtning ma'lum bir joyda ko'p yoki kamligidan darak beradi. O'simlikning ko'p ekanligi ma'nosini bildiruvchi oykonimlar tarkibida "ming", "to'p", "qator" "gala" sonlar va miqdor bildiruvchi ayrim so'zlar mavjud bo'ladi: Mingo'rik, Mingchinor, To'ptol, To'pterak, Qatortol, Galatut singari. Shuningdek, Grammatik jihatdan-li, -lik, -zor, -iston qo'shimchalari orqali shakllangan oykonimlar ham o'simlik turning ma'lum yerda boshqa ob'yektlarda nisbatan ko'proq uchrashligini bildiradi: O'rikli, Tolli, Yong'oqli, Olmali, Uzumzor, O'rikzor, Nayiston (nay-qamish), Bodomiston kabi.

O'simlikning kamligi yoki sanoqli ekani ma'nosini bildiruvchi oykonimlar tarkibida "yakka", "ikki", "qo'sh", "uch", "to'rt", "chor" (to'rt) so'zlari ishtirok etadi: Yakkatol, Yakkatut, Ikkitol, Qo'shchinor, Qo'shtol, Uchchinor, Chorchinor, Chortut va boshqalar. Bundan tashqari, hech qanday qoshimchasiz (affiksiz) o'zak holida qo'llanuvchi Chinor, Qayrag'och, Sada, Archa, Tut, Chilon singari fitooykonimlar ham joy nomi uchun asos bo'lgan so'zda ifodalangan o'simlik turning o'sha territoriyada ozligi, kam miqdorda ekanligi, lekin eng xarakterli belgi vazifasini o'tashligini bildiradi.

5.Gidronimlar-suv havzalari, daryo, kanal, soy, ariq, buloq, ko'l kabilarning nomlarini o'rganuvchi soha: Amudaryo, Oqdaryo, Darg'om kanali,Oqtepasoy, devonko'l, Beshbuloq, Chakariq.

Gidronimlar suv ob'ektlarining atoqli otlari bo'lib, respublikamiz toponimiyasida salmoqli o'rinlardan birini egallaydi. Ular bir necha gruppalariga bo'linadi. **Daryo nomlari;** Amudaryo, Sirdaryo, Qoradaryo, Oqdaryo, Chirchiq daryosi, Piskom daryosi, Ugom daryosi, Zarafshon daryosi, To'polondaryo, Norin daryosi, **suv omborlari nomlari;** Kattaqo'rg'on suv ombori, Chimqo'rg'on suv ombori, Pachkamar suv ombori, Chorvoq suv ombori, Karkidon suv ombori, Quyimozor suv ombori, **kanal nomlari;** Katta Farg'ona kanali, Janubiy Mirzacho'l kanali, Amu-Buxoro kanali, Amu-Zang kanali, **soy nomlari;** Oqtepasoy, Ko'ksaroysoy, Ohaliksoy, Oqsoyy, Qizilsoy, :arsoy, **ko'l nomlari;** Dengizko'l,

To'dako'l, Chuqurko'l, Kattako'l, Moxonko'l, **buloq nomlari**; Qo'tirbuloq, Arashonbuloq, Qayroqchibuloq, Beshbuloq, Oqbuloq, **ariq nomlari**; Jiydaariq, Sho'rariq, Dashtariq, Objuvozariq, Qumariq, **quduq nomlari**; Eshonquduq, Quduqinav, Oyoqquduq, Toshquduq, Otquduq, **hovuz nomlari**; Sementlihovuz, Bo'rhovuz, Tosshhovuz, Molhovuz, Sassiqlhovuz, **zovur ismlari**; Ko'kzovur, Qorayog'zovur, Haromzovur, **to'g'on va quvur nomlari**; Qumto'g'on, Beshquvur, Toshquvur, To'rtquvur singarilari.

Gidronimlar turlicha ma'nolarni ifodalab beradi. Ba'zi gidronimlarning etimologiyasi (kelib chiqishi) hammaga tushunarli bo'lib, ortiqcha izohni talab etmaydi. Qumariq, Toshariq, Shirin quduq, Shorsuv, Achchiqko'l, Oqsuv, Qorasuv, Sariqsuv, Qo'shariq, Uchbuloq singarilar shunday nomlar jumlasiga kiradi. Bulardan Qumariq, Toshariq gidronimlari yerning ustki qismida qum va toshning ko'pligiga ko'ra nomlangan bo'lsa, Shirinquduq, Sho'rsuv, Achchiqko'l atamaları suvning maza-ta'miga nisbatan nom olgan. Qo'shariq, Uchbuloq otlari esa ob'yektning miqdor xususiyati bilan bog'liq holda vujudga kelgan.

Gidronimlar orasida yana shundaulari uchraydiki, ularning ma'nolari o'z-o'zidan anglashilib, sezilib turmaydi. Bunday nomlar ko'pincha o'zga til materiallaridan ashkil topgan bo'lib, ularning ma'nosi naxsus etimologik tadqiqotlar yordamida ochib beriladi. Zarafshon, Bulung'ur, Arashonbuloq, Sangzor, Ulug'nor gidronimlarini unga misol qilib keltirish mumkin. Zarafshon daryosining nomi tojikcha Zar-tilla, Afshon-sochuvchi so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "Tillasochuvchi" ma'nosini bildiradi. Darhaqiqat, tarixiy manbalarda Zarafshon daryosi oqizib kelgan qumlardan bir necha asr davomida oltin ajratib olinganligi to'g'risida ma'lumotlar keltiradi. Bulung'ur kanalining nomi asosida mug'ulcha so'z yotadi. Tadqiqotchilarning fikricha Buling'urning ma'nosi "Loyqa suv" demakdir. Arashonbuloq gidronimining birinchi komponentdagi Arashon so'zi sanskripcha bo'lib "Shifobaxsh", "Iliq" tushunchasini ifoda qiladi. Demak, Arashonbuloq "Shifobaxsh buloq", "Issiqbuloq" ma'nosini bildiradi. Fargo'na vodiysidagi Ulug'nordeb ataluvchi suv ob'yekti

nomining ikkinchi qismida qo'llangan "Nor" so'zi arabcha "Naxr" (daryo) so'zining mahalliy aholi talaffuzidagi ko'rinishidir. Ushbu atama "Katta kanal" ma'nosini beradi. Sangzor daryosining nomi tojikcha sang-tosh hamda o'rin joy ma'nosini bildiruvchi "Zor" qo'shimchalaridan tarkib topgan bo'lib, "Toshli yer, toshloq" degan tushunchani ifoda etadi.

6.Agronimlar-dala, yer, marza, uchastkalarining atoqli otlari agronimlar deb yuritiladi: Pastdala, Qirdala, Kattayer, Sho'rmarza, Rayhonmarza.

Agronimlar toponimik sistemada katta bir qatlamni tashkil etadi. Dala yer, marza, uchastkalarining atoqli otlari agronimlar deb yuritiladi. Biz quyida Farg'ona oblasti agroonimiyasi materiallari asosida ularning o'ziga xos tomonlari, nomlanish xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tekshirilayotgan territoriya agroonimlarini xarakterlovchi xususiyatlardan biri sifatida nom tarkibida qatnashgan ob'yekt bildiruvchi so'zlarni ko'rsatish mumkin. Darhaqiqat, agroonimlarning ikkinchi komponentida tibandagi so'zlar aktiv ishtirok etadi:

- 1) dala so'zi: Shordala, Sarsondala, Mitandala, Qaqirdala, Ovliqdala, Pastdala
- 2) er so'zi: Kattayer, Tepayer, Quvlayer, Pastyer, Tomoshayer
- 3) to'qay so'zi: Olimto'qay, Shokirto'qay, Torang'ito'qay, Pasto'g'ay
- 4) maydon so'zi: Terakmaydon, Mullamaydon, Tutmaydon
- 5) bog so'zi: Bo'tabog', Gulbog', Chilgibog'
- 6) dasht so'zi: Afandining dashti, So'fidasht, G'umaylidasht
- 7) qo'riq so'zi: Kattaqo'riq, To'ng'izqo'riq, Balandqo'riq, Pastkiqo'riq
- 8) shoh so'zi: Kattashoh, Kichikshoh, O'rtashoh
- 9) vahim so'zi: Sho'rvahim, Chuzoqvahim, Pastvahim
- 10) marza so'zi: Rayhonmarza, Sho'rmarza, Zahmarza
- 11) bo'lak so'zi: Qumbo'lak, To'pponchabo'lak, Kattabo'lak singarilar.

Agronimlar quyidagi xususiyatlar asosida nomlanadi.

1. Kishi nomlari bilan ataladi: Jabborto'qay, Shofirto'qay, Abduvalining do'ngi, Kimsanboyning yeri, Sandalibog', Shokirjon tirkaki singarilar.
2. Kishi ismi va unga qo'shib qo'llangan laqab bilan atalgan bo'ladi: Rustam Qoraqalpoqning yeri, Azam vuqoqning yeri, Qozi ezma, Jo'ra baqaloqning yeri
3. Laqabning o'zi bilan ataladi. Unda laqab yakka holda kishi ismisiz qo'llanib, ayrim yerlarning nomlariga asos bo'ladi: Misgarning yeri, Korpafurushning yeri, Attorning yeri, Pistafurushning yeri kabilar.
4. Obyektning joylashgan o'rniga nisbatan nomlanadi: Yuqoridala, Balandqo'riq, Tepayer, O'rtashoh va hokazolar.
5. Obyektning hajmi, o'lchovi asosida nom olgan bo'ladi: Kattaqo'riq, kattataqir, Kattacho'zoq, kattabo'lak, Chuqurkarta, Chuqurdala va boshqalar.
6. Obyektning miqdoriy belgisiga asosan nomlanadi: Olti gektorlik, Sakkiz gektorlik, Qirqtanoblik, Oltitanob, To'qqiz tanoblik kabi.
7. Obyektning tashqi ko'rinishi jihatidan biron narsa yoki predmetga o'xshashligiga ko'ra nom olgan bo'ladi: To'rtqovoq (to'rt tomoni daraxtlar bilan o'ralganligi uchun), Tumorcha (Uchburchak shaklida bo'lganligiga ko'ra), Tuyamo'yin, Qozonyer kabilar.
8. Ba'zi bir agronimlar o'sha joyda sodir bo'lgan ma'lum voqea-hodisa asosida paydo bo'ladi: Ayiqo'ldi, Ho'kizo'ldi, Oto'ldi, Kuygantol, Qumbosdi.
9. Agronimlarning katta qismi ob'yektning o'simliklar va hayvonlar dunyosiga ishora etib qo'yilgan: Qovg'ali, Yakkatut, Jiydali, Yakkaterak, Miyazor.
10. Ayrim agronimlar tuproqning turi, sostavi, rangi va boshqa xususiyatlariga ko'ra nomlanadi: Qumdala, Qumbo'lak, Qumloq, Oshloq, Toshloqdala, Toshqo'riq, Sho'rmarza, Tuzkon, Sozloq kabilar.
11. Agronimlarning ma'lum bir qismi qishloq nomlari bilan atalgan. Bunda obyektning qaysi qishloqqa qarashliligiga, tegishligi asos bo'lib xizmat qilgan: Metindala, Chankatdala, Yashiqdala, Shopo'latdala, Surtadala, Tomoshodala agronimlari shu yusinnda vujudga kelgan.

Agronimlarning muhim tomonlaridan biri, ularning o'zgaruvchang xarakterga egaligidir. Binobarin agronimlar bir-ikki avloddan so'ng, hatto bir avlod davomidaham almashib ketishi mumkin. Ikkinchidan agronimlar asosan territorial xususiyat kasb etadi. Chunki ular kichik ob'ektlarning nomi bo'lganligi uchun chegaralangan kishilar nutqida qo'llaniladi. Uchinchidan, agronimlarga nom bir tilda so'zlashuvchi kishilar tomonidan beriladi. Shuning uchun bu atamalarning ma'no va mazmuni o'z-o'zidan anglashilib turadi.

7.Urbanonimlar-shahar ichidagi har qanday obyekt nomlarini o'rganuvchi soha.

8.Kosmonimlar-yerdan tashqaridagi obyektlar: osmon jismlari nomlarini o'rganuvchi soha.

So'nggi 40-45 yillar ichida toponomikaning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi, toponomika sohasida bir qancha tadqiqotlar maydonga keldi. O'zbekiston toponomiyasi XX asrning 60 yillaridan boshlab ilmiy asosda o'rganila boshlandi: Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo, Samarqand, Margilon, Qo'qon, Buxoro, Boysun, Mirzacho'l, Shahrisabz, Nurota hududlaridagi joy nomlari tadqiq etildi. Toponomikaga oid bir necha lug'atlar, risola va monografiyalar nashr etildi. H.Hasanovning "Yer tili" (1977), S.Qorayevning "Geografik nomlar manosi" (1978), Z.Do'sinovning "Xorazm toponimlari" (1985), T.Nafasovning "O'zbekiston tog'lariningizohli lugati" (1988), N.Oxunovning "Joy nomlari ta'biri" (1994) va boshqalar shular jumlasidandir.

Asrlar davomida saqlanib kelayongan geografik nomlar davr o'tishi bilan shaklan o'zgarishi, ma'nosi xiralashishi mumkin. Bunday hollarda ularning yozma bitiklardagi dastlabki shaklini izlab topish yaxshi natija beradi. Toponimlarni o'rgansh, ularning etimologiyasini tadqiq qilish o'lkamiz tarixi bilan bogliq voqealar bilan tanishimizda ham yordam beradi.

1.2.Ingliz tilida toponimik joy nomlari va ularning ishlatilishi.

Ingliz tili toponimik joy nomlari Angliyadagi geografik joy nomlarining kelib chiqishi va atoqli otlarning tendensiyasini tilshunoslik nuqtai nazari bilan tavsiflanadi.

Ingliz tili toponimikasi boy ,qiyin, turli xil bo'lishiga qaramay, ularni hozirgi kunda izohlash aniq faktga asoslanmaydi.Ko'pchilik ingliz tili nomlari til va madaniyatning ilk namunalari yo'qolishi natijasida ancha yillar davomida zarar ko'rgan va muomaladan chiqqan. Ayrim toponimik joy nomlar hozirda umuman qo'llanilmaydigan tillardan yoki turli davrdagi ikki tilning qo'shilishidan vujudga kelgan.

Qadimgi davrlarda yo'qolib ketgan tillar to'g'risida faqatgina yozma yodgorliklar dalolat bera olishi mumkin.Yozma yodgorliklar saqlanmagan taqdirda, tillar to'g'risida ma'lumot beradigan birdan bir manba bu atoqli otlar,qabila va geografik joy nomlari,shuningdek,qo'shni xalqlar tomonidan o'zlashtirib olingan so'zlar.Son-sanoqsiz ingliz so'zlarni, ayniqsa atoqli otlar shakliga ega bo'lgan so'zlarni keyinchalik yaratilgan lotin tilidagi yozma yodgorliklarda ham uchratish mumkin.Shunday tillar borki, ya'ni briton tili qadimgi irland, valliylar tili, lotin tili, anglo-sakson, qadimgi skandinaviya tili, norman, qadimgi fransuz tili, hozirgi fransuz tili va boshqa tillar Angliya nomenklaturasini ifodalaydi.

Kelt tili eng qadimiy va keng tarqalgan til hisoblanadi. Kelt tili Yuliy Sezar istilosigacha Fransiyaning Briton orollarida keng yoyilgan bo'lib, to german qabilalari tomonidan Briton va Gael orollari istilo qilinguncha davom etgan.Kelt tilining hozirgi vakillaridan bu irland, shotland va Fransiyaning Briton viloyatidagi Briton tillaridir.*Kelt tili toponimlari.* Kelt tilida rimliklar Briton orollarida hukmronlik qilgan davrlarda gaplashishgan.Shuning uchun Briton orollaridagi ko'pgina toponimik joy nomlar kelt tilidan yaratilgan.

Briton toponimlari-London, York, Dorchester, Dover, Colchester;

Valliylar toponimlari-Chester, Glauchester, Worchester, Cambridge, Winchester;

Lotin toponimlari-Oxford, Carlisle, Aldborough;

Anglo-sakson toponimlari-Barrow Hill, Long Harborough, Shirburn, Wendlebury;

Qadimgi skandinaviya toponimlari –Selby, Whitby, Scunthorpe, Skipton;

Norman toponimlari-Nottingham, Durham;

Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan ba'zi bir toponimlar german qabilalarining alohida-alohida bo'lib joylashganliklari haqida dalolat beradi. Angliyada “-ing” suffiksiga negiz yasovchi “**ham**” qo'shimchasi qo'shiladi (qadimgi ingliz tilida **ham** so'zi “mulk”, “kulba”, “turar joy” ma'nolariga ega bo'lgan). “**Ing**” suffiksida “**ham**” negiz yasovchi qo'shimchani qo'shilishi natijasida “**ingem**” toponimik suffiksi yuzaga keladi. Bu suffiks yordamida Angliyada Birmingham, Nottingham kabi shaharlar paydo bo'lgan. V asr o'rtasi va VI asr oxiri inglizlar, sakslar va yutlar bir yarim asr davomida Britaniya hududida keltlarning qarshiligini yengib, shu Britaniya davlatiga asos soladilar.

Irlandiya toponimlari. Irlandiyada ko'pgina geografik joy nomlari ingliz tilida moslashgan va aksincha, ingliz geografik joy nomlari irland tili fonologiya va orfografiyasiga moslashgan. Shu bilan birga, ayrim atoqli otlar bevosita ingliz tilidan va ayrimlari qadimgi skandinaviya, Olstraning, Shotland tilidan o'zlashtirilgan. Irlandiyada geografik joy nomlari mamlakat tarixi geografiya va shu qatorda irland tilining rivojini o'z ichiga olgan holda o'rganiladi.

Qadimgi irland toponimlari-Ardglass, Belfast, Carryduff, Rockcorry, Tubbercurry;

Qadimgi skandinaviya toponimlari-Arklov, Carlingford, Dalkey, Fashnet, Howth.

Shotlandiya toponimlari-shotland tilidan lkelib chiqqan. Toponimikka mamlakat til tarixidankelib chiqqan holda har bir hududda o'zgaradi. Sharqiy shotlandiyaning ko'pchilik toponimlar qadimgi irland tilidan kelib chiqqan va pekt tilining ba'zi bir atoqli otlar toponimlarda o'zlashtirilgan. Shimoliy orolliklarning deyarli barcha toponimlar skandinaviya tilidan kelib chiqqan. G'arbiy orollarda norveg tilidan kelib chiqqan geografik joy nomlari bor va bular materiklarning sohiliga borib taqaladi. Tog'li hududliklarning geografik joy nomlari tabiat elementlari-urg'u bergan holda shotland va qadimgi irland tilidan kelib chiqqan. Masalan, **Glan-vodiy** va

Inver-qo'shilish, quyilish ma'nolarini anglaradi. Shotlandiya past tekisliklarida geografik joy nomlarining kelib chiqishi turlichadur. Ularning ko'pchiligi qadimgi irland tilidan va shu bilan britan tilidan o'zlashtirilgan. Masalan, **Lanark**. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, sharqiy past tekisliklarning geografik joy nomlarigadimgi ingliz tilining shimoliy shevlaridan kelib chiqqan.

Kelt toponimlari.

Briton toponimlari-Aberargie, Dal keth, Keith, Abercorn;

Qadimgi iarland toponimlari-Airth, Caerlaverosk, East, Giarloch

Pikt toponimlari-Angus, Aberdeen, Lhanbkyde;

Anglo-sakson toponimlari-Carstairs, Castlecary, Eaglesham, Earlston;

Qadimiy skandinaviya toponimlari-Cairnburg, Caithness, Durness, Forth.

Uels toponimlari.

Valliy toponimlari-Cardiff, Bangor, Bedgelert, Gelligaer;

Anglo-sakson toponimlari- Ellesmere, Goldcliff, Haroldston, West, Hope;

Qadimiy skandinaviya toponimlari-Coldey Island, Fishguard, Goodwick;

D.I.Yermolovichning toponimlar haqidagi nazariyasi.

D.I.Yermolovich nazariyasiga ko'ra toponimlar atoqli otlar sifatida geografik joy nomlari uchun qo'llaniladi. Toponomik joy nomlari ko'p sonli: bu qit'a, okean, dengiz, mamlakat, ko'l, daryo, orol,, yarim orol, aholi yashash joylari, ko'cha, maydon, qurilish va boshqalar bo'lishi mumkin. Yermolovich toponimlarni quyidagilarcha tasniflaydi.

Birinchidan, geografik joy nomlarini aniqlovchisi bilan beriladi. Masalan, inglizchada **the strait of Dover, Jersey, City, Coney Island**; fransyuzchada **Mont Blans, I'lle de France** yoki ruschada **Mockva reka, Vasilyevskiy ostrov, Rijskiy zaliv, Lomonosov prospect**. Grafik joy nomlari asosan rasmiy nom bilan beriladi. Lekin aniqlovchisi qolgan geografik joy nomlari ham uchraydi. Masalan, **New-York (city), Baffin (Island), Nipigon (lake)**.

Ikkinchidan, toponimlar qo'shimchalar yordamida ham yasaladi. Masalan,

Novgorod, Beloozero, Kingstown, Peterborough.

Uchinchidan, shunday toponimlar borki, ular qo'shimchalar yordamida yasaliib, o'sha geografik joy nomlarini bildirmaydi, lekin o'ziga xos tarzda yasaladi. Masalan, rus tilida shaharlarning oxirida –**sk** qo'shimchalari bilan yasaladi. Misol uchun **Irkuts, Yakuts, Lipesk, Donesk**. Shahar tashqarisi va qishloqlar va shu bilan birga shaharlarga aylangan qishloqlar –**ovo, evo, ckoye,ki, ino, ye** kabi qo'shimchalar yordamida yasaladi. Masalan, **Bikovo, Matveyevskoe, Petushki, Vixino, Zaporojye** va boshqalar. Mamlakat nomlarini yasashda –iya qo'shimchasi an'anaga aylangan. Masalan, **Britaniya, Ispaniya, Italiya, Possiya, Yaponiya** va boshqalar. Ingliz tilida esa geografik joy nomlar-**ton, -field, bridge, -burg, -borough, -mouth, land, -hampton, -shire, -dester, -head, -y, -ia, -ford** kabi qo'shimchalar yordamida yasaladi. Masalan, **Washington, Westerfield, Cambridge, Rittsburg, Hanborough, Portsmouth, England, Southhampton, Manchester, Selbu, Oxford** va boshqalar.

Eremovich toponimlarni antroponimlarga bo'ladi, masalan, Londonning poytaxti **London, Temza** daryosi ustida loylashgan katta shahar, yana Florida toponimi shtat va AQShning janubiy-sharqida joylashgan yarim orol, dengiz bo'yidagi dam olish maskanidir, yoki **Coney Island Nyu-Yorkdagi** tuman va ko'ngilochar maskan hisoblanadi. Shu kabi toponimlarni Yeremovich bir ma'noli toponimlar deb ataydi. Shunday toponimlar borki, ular bir nechamarta ishlatiladi. Bu kabi toponimlr ayniqsa ko'cha nomlarida ko'p uchraydi, masalan, **Pushkin va Gopkiy** ko'chalari Rossiyaning har bir shaharida uchraydi, yana AQSHning barcha shaharlarida **Main Street** ko'p uchraydi, yana bu kabi toponimlarni Yeremovich ko'p ma'noli toponimlar qatoriga kiritadi.

II BOB. TOPONIMIK JOY NOMLARINI TARJIMASI HAQIDA

2.1. Atoqli otlarni tarjima qilish o'ziga xos xususiyatlari.

Atoqli otlar 3 xil usulda tarjima qilinadi. Bular transkripsiya, translitirasiya va kalkalash usullaridir. Quyida ular haqida batafsilroq ma'lumot beramiz. **Transkripsiya va translitirasiya** usullari asliyatdagi deksik birliklari shaklini tarjima tilining harflari orqali ifodalash usulidir. Transkripsiyada xorijiy so'zning, eshtilish formasi qayta tiklanadi. Asliyat va tarjima tillarining fonetik sistemasudagi farqlar ko'proq transkripsiya usulida foydalanishga olib keladi. Masalan: **absurdist-absurdist** (absurd asar muallifi); **klebtocracy-klebtoratiya** (o'g'rilarning oliy tabaqasi); **skateboarding-skeytbording** (rolikli taxtada uchish). Bu o'rinda inglizcha aurim talaffuz qilinmaydigan tovushlarning talaffuz qilinishi, unlillarning reduksiya holatlari kuzatiladi; **DORSET**-dorset; **campbell**-kempbell; **boss**-boss; **rculec**-gerkules; **missiley**-raketa **deescalation**- deeskalatsiya; **Columbia**-kolumbiya.

Ayrim tarixiy shaxslar, geografik nomlarni tarjimada berishda umumiy qabul qilingan an'anaviy formalarda foydalaniladi:

Charles I-Karl I

William III-Vilgelm III

Edinburgh-Edinburg

Kalkalash-asliyatdagi leksik birlikni tarjima tilidagi leksik birlik bilan almashtirishni ko'zda tutadi va tarjima tilida yavgi so'z va ibora yasalishiga olib keladi:

Superpower-sverxderjava-hukmron davlat

Mass culture-massovaya kultura-ommaviy madaniyat

Green Revolution-zelyonaya revolusiya-yashil inqilob

Land-based missile-raketa nazemnogo bazirovaniya-yerda o'rnatilgan raketa

Rapid Deployment Force-sili bistrogo razvertivaniya-tezkor harakatlanuvchi harbiy kuchlar

Transnational-transnasionalniy-transmilliy

Petrodollar-neftdollar

Miniskirt-miniyubka

Quyida transliterasiya usullarini ko'rib chiqamiz. Transliterasiya turli til sistemalarida ishlatiladi. Masalan, **ingliz, rus, grek, arman, gruzin** va boshqa tillar. Biroq ushbu tildagi harflar yoki grafik birliklar bir-biriga mos tushishi mumkin. Masalan, lotin va kirill alifbosidagi ko'pgina harflar bir-biriga o'xshaydi. Ular tovush jihatidan mos keladi. Transliterasiyaning ustunligi bo'lganligi kabi, kamchiliklari ham uchraydi. Ustunlik tomoni shundaki, yozma variantdagi atoqli otlar buzib ko'rsatilmaydi. Masalan ruscha **Yelsin** familiyasi inglizchada Yiltsin, fransyuzchada esa **Yltsine** deb tarjima qilinadi. Ba'zi holda asliyat va tarjima tilidagi atoqli otlar bir-biriga mos kelmaydi. Bular asosan chet el ism va familiyalarida ko'p uchraydi. Masalan, **Yung-Yang**, yoki **Jung, Li-Leigh, Lee** yoki **Lie** kabi variantlarda berilishi mumkin.

2.2. Toponimik joy nomlarini tarjima qilish usullari.

Atoqli otlari toponimlar ham uch xil usul bilan tarjima qilinadi. Bular transliterasiya, transkripsiya va kalakash usullaridir. Quyida bular haqida batafsil ma'lumot beramiz.

Transliterasiya-asliyotdagi leksik birkliklarning tarjima tilining harfilari orqali ifodalash usulidir. Transliterasiya o'zining oddiyligi va qo'shimcha belgilar kiritish imkoniyatiga ega ekanligi bilan transkripsiyadan farq qiladi. Transliterasiya adabiyotlar ro'yxati va kataloglar tuzishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, chet el muallifining barcha asarlari nomlarini kataloglar orqali toppish mumkin.

Toponimlarning yozma shaklda ham o'rganish mumkin. Bir tildagi matnni grafik shaklini boshqa tilga o'zgartirmasdan ko'chirish mumkin. Bunday holatlar yozma shakldagi tillarning grafik asoslari umumiy bo'lganda kuzatiladi. Bunday usul lotin grafikasi asosidagi ko'pgina mamlakatlarda qo'llaniladi. Garbiy Yevropa tillaridagi toponimlarni bir tildan ikkinchi tilda o'zlashtirishda qoida bo'yicha orfografiyasi o'zgartirilmay beriladi. Bunday usuldagi ko'chirishlar o'quvchiga qulaylik tugdiradi. Bunda o'quvchi hech qanday qiyinchiliklarsiz tarjima qila oladi. Masalan,

Manchester, London, Cardiff, Pitsburg, Belfast va boshqalar.

Modomiki tilning tovushlar sistemasi birinchi o'rinda yozma shakli ikkinchi o'rinda turar ekan, tilning fonetik shakli asliyatga yaqin turadi. Boshqacha qilib aytganda asliyatdagi toponimlarni tarjima tilida berish uchun avval o'sha toponimlarning talaffuziga e'tibor berish kerak. Bunday usul fanda **transkripsiya** deb ataladi va bu toponimlarni o'zbek tiliga o'girishdagi zamonaviy usullaridan biri hisoblanadi. Masalan, **England-Angliya, Scotland- Shotlandiya, China-Xitoy, Spain-Ispaniya, Warsav-Varshava, Croatia-Xorvatiya, Crech-Chexiya** va boshqalar.

Har bir tilning milliy o'ziga xos tomonlari mavjud. Bir tildagi toponimlarni ikkinchi bir tilga tarjima qilishda o'sha tilning milliy o'ziga xos tomonini ko'rib chiqish lozim, shakl jihatidan har xil, kekin lingvistik jihatdan umumiy bo'lgan turli tildagi toponimlarni tarjima qilishda transpozisiya usulidan foydalanishadi. Masalan, **Germany, Japan, Uzbekiston, Turkey, France** va boshqalar.

Atoqli otlarning tovushlar sistemasi Grammatik kategoriyalar bilan uzviy bogliqdir. Rus tilidagi atoqli otlar grammatik rod bilan asoslanadi. Masalan, fransyuzcha Oise, Creuse, Orne, Aude daryolari, Cannes, Lille shaharlari, Provence, Touraine viiyatlari fransyuz tilida jenskiy rodga qo'llaniladi, rus tilida esa bularUaz, Orn, Krez, Od, Kann, Lill, Provans, Turen kabi toponimlar undosh tovushlar bilan tugaydigan otlar singari mujskoy rodga qo'llaniladi. Ko'pgina a harfi bilan tugaydigan toponimlar rus tilidagi otlarning birinchi turlanishiga kiradi. Masalan, Anqara, Alma-Ata, Varshava, Vena.

Asliyandagi atoqli otlarni tarjima tilida berish uchun otlarni kelib chiqishiga ahamiyat berish kerak. Masalan, rassom va realist Dali ingliz tilida Dalisque, buni o'zbek tilida talaffuz qilish qiyin. Mamlakatlarni esa qoidaga amal qilganholda aholisining kelib chiqishiga ko'ra nomlanadi. Masalan, Shri-Lanka yoki Burkina-faso toponimlarini nomlash qiyin, chunki bu ikkita mamlakatning qaysi qismidan aholini ko'psatish qiyinchikik tugdiradi. Gazeta maqolalarida bu mamlakatlarni aholisini

Lankiy va Burkiniy sifatida ishlatiladi. Madaniyat va tillar o'rtasidagi aloqalar ko'p asrlik tarixga ega. Bir tildagi toponimlarni ikkinchi bir tilga o'zlashtirishda tillarning rivojiga bogliq holda o'zgaradi yoki ba'zi hollarda buzib ko'rsatiladi. Ko'pgina toponimlarni o'zaro taqqoslashda beo'xshov tomonlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Suomi o'zbek tilida Finlandiya, Xitoy o'zbek tilida China, garbiy Germaniya viloyat Pfalz fransyuzcha Palatinat. Chud ko'li fransyuzcha las Peipou, Buyuk Karl ingliz va fransyuz tillarida Charlemagne tarzida tarjima qilinadi.

Shunday qilib ushbu bitiruv malakaviy ishimizda toponimlar haqida barcha zarur naariy ma'lumotlarni to'plab o'rganib chiqdik.

III BOB. “ALVIDO QUROL” ASARI TARJIMASIDA TOPONIMIK JOY NOMLARI VA ULARNING TARJIMASI TAHLILI HAQIDA

Ernest Heminguey 1899 yilda Ouk-Parkda tugʻilgan. Amerikaning yirik yozuvchisi Nobel mukofoti sovrindori boʻlgan Heminguey ijodining boshlanishi birinchi jahon urushidan keyingi yillarga toʻgʻri keladi. Hemingueyning oʻzi ham urushda bevosita ishtirok etganligi sababli hamda yaralanib urush dahshatlarini oʻz boshidan kechirganligi tufayli “urushga qarshi chiqish” ijodining markaziy mavzusiga aylanadi. 1925 yilda yozilgan “Bizning zamonda” hikoyalar toʻplamida tinch hayot va qonli urush mavzulari qarama-qarshi qoʻyiladi.”Alvido qurol” romanida ham maqsadsiz urush keskin qoralanadi.Chin insoniylikning asosiy xislatlaridan biri boʻlgan muhabbat ulugʻlanadi. Keyingi asarlari: “Tushdan keyingi oʻlim”, “Afrikaning yashil tepaliklarida”, “Fiesta yoxud quyosh baribir chiqaveradi”. Ushbu romanida Heminguey birinchi va ikkinchi jahon urushlarida yoʻqotilgan avlod qismatini yoritadi.

1954 yilda Heminguey “Chol va dengiz” qissasi uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlanadi. “Odamjodni yanchib tashlash mumkin, lekin boʻysundirish mumkin emas” degan soʻzlari bilan insonga, inson irodasi va qudratiga cheksiz ishonchini koʻrsatadi.Bu ulugʻ adibning hikoya, qissa va romanlarida inson hamda xalq xarakterining mukammal gavdalandirilganini, ayni paytda hayvonot va nabotot dunyosining hayoti badiiy kashf etilganini, ular odamzod hayoti bilan uzviy tasvirlanganini, tiriklik kushandasi boʻlgan urush laʼnatlanganini koʻramiz.

Soddalik... Bu Heminguey ijodining ajib fazilatlaridan biri. Uslubning goʻzal xossasi boʻlmish bu soddalik, samimiylikka, turgan gap, osonlikcha erishgani yoʻq. Toʻgʻrirogʻi, qalbidagi hislarni boʻyamay, qanday boʻlsa oʻshandayligicha ravshan ifodalashga erishish uchun u, oʻzigacha boʻlgan adabiyotni suv qilib ichib yubordi.

Tanqidiy realizmning yuksak namunalaridan hisoblanmish “Alvido qurol”ni yozganda Ernest Heminguey 29 yoshli yigit edi. Shuning uchun boʻlsa kerak, Genri va Ketrinning hayotga munosabatlarida, ularning baxtli taqdir yaratish uchun boʻlgan

kurashlarida yoshlik harorati barq urib turadi.

Hayotda birinchi jahon urushida qatnashgan 19 yoshli leytenant Ernest muhoriba sababli, o'z sevgilisidan tirik ajraladi. Asarda: qahramonlar- Genri va Ketin talay qiyinchiliklarni yengishga erishsalar, o'lim ularning endigina ochila boshlagan gulday baxtini tag tomiri bilan yulib tashlaydi. Roman urushga qarshi urush e'lon qiladi. Inson urushni yengadi.

Asarning tarjimasida shunday parchalar borki, kitobxon, beixtiyor romanning tarjima ekanligini unutib qo'yadi-muallifning mahoratidan hayrat yoqasini ushlab: ajabo, Heminguey asarni o'zbek tilida yozmaganmikan, degan xayolga borib qoladi. Tarjimon qalamining sehrli kuchi shunga bo'lsa kerak.

Romanni inglizcha aslida mutolaa qilganimizda dastlab shunday fikr tugildi: nima uchun endi qahramonlar muhabbat deb shuncha kurashishsayu, qanch azob uqubatlar evaziga unga etishganda, shafqatsiz o'lim ularni ajratib tashlasa. Ko'rgan azoblarining o'zi etmasmidi. Ketrinning o'limi kimga kerak bo'lib qoldi ekan? Asarni sinchiklab o'qib chiqqan kitobxon Ketrin o'lishi kerakligini, bunday hayot sof vijdonli, pok odamlarni hech qachon e'zozlamasligini, balki tahqirlanish, toptalishini mumkinligini tushunib etadi.

Kino talqinida Ketrin o'lmaydi, bu esa Ernest Hemengieyning gazabini keltiradi. –Kinoshilarning ko'rishga ko'zi bo'lmay qoladi. Adib hayot haqiqatidan ko'z yumushni bemihoya yomon ko'rardi. Asliyat Ketrinning o'limi tasviri har ikki tarjimada ham asliyatdagi kuchli, ishonarli qilib berilganki, kitobxon yozuvchining asosiy maqsadi to'la anglab etadi.

“Alvido qurol”ni rus tiliga tarjima qilgan Evgeniy Kalashnikov yozuvchining urushga qarshi urush e'lon qikishdan iborat bosh konsepsiyasining juda yaxshi anglagan holda, asarni asl inglizchasiga hamohang bo'ladigan yuksaklikka ko'tara olgan. Ibrohim G'afforov romanni anashu ruscha tarjimasi orqali o'zbek adabiyotida olib o'tdi. Ma'lum bir tilda bunyod qilingan san'at asarini-ikkinchi til orqali uchinchi tilga o'tkazish naqadar og'ir, xatarli, masuliyatli jur'at bu. Ammo tarjimonning

muallif ijodini chuqur bilganligi, uslubini, mukammal egallaganligi unga qo'l kekgan.

Hemengueuning qisqa, soda gaplaridan iborat tili maqsadini shunday aniq ifodalaydiki, bunday "Gapira olish" faqat unga nasib etgan. Yozuvchi o'ziga xos uslubda Valentini tilidan Ketringa aniq ta'rif beradi. Valentini Genri a deydi:

...Yes, yes. That's it. You look healthy as a goad. Who's the preety girl? Is she your girl? I thought so. Ins't this a b'oatty war? How does that feel? You are fine boy. I'll make you better than new. Does that hurt? You, these doctors. What have they done fou you so far? Can't that girl talk Italian? She should learn. What a lovely girl. I could teach her. I will be a patient here myself. No, I will do all your maternity work free. Does she understand that? She will make you a fine boy. A fine blonde like she is. That's fine. That's all right. Wal a lovely girl.

Ibrohim G'affor tarjimasi:

...Xo'sh, xo'sh. Buni qaranga. Otday baquvvat ekansiz. Anob yoqimtoygina qiz kim edi? Sevgilingizmi? Shundaydir, deb o'ylovdim. Shu urush yomon bo'ldi-da. Bu yer ogrimayaptimi? Azamat ekansiz. Tuzatamiz, ko'rmagandey bo'lib ketasiz. Bu yer ogriyaptimi? Og'rinasinmiyam. Bu doktorlar og'ritishga ko'p usta bo'lishadi-da. Shu paytgacha sizni nama bilan davolashdi? Bu qiz italyancha sozlasha oladimi? O'rganishi kerak. Dilbar qiz ekan. Men unga dars berishga rozi bo'lardim. O'zim shu gospitalda yotaman. Yo'q, yaxshisi, nen ko'zi yorigan paytlarda tekinga doyalik qilaman. Nima deytganimni tushunadimi? U sizga ag'cha tujoyib o'g'ilcha tug'ib beradi. O'ziga o'qpar bo'ladi. Shunday, alo. Dilbar qiz.

Tarjimonlar personajning o'ziga xos "til"ni, kasb-koriga xos uslubi, psixologiyasi, fikrlash taxlitini ham saqlashga harakat qilishgan.

Ernest Hemenguey qo'llagan, goat hijjalab o'girilsa, taka so'ziga to'g'ri keladi. O'z navbatida, I.G'afforov hamda Goatgoki ho'a ruscha tekstda ekvivalent qilib bik so'zini buqa yoki ho'kiz deb ag'darganida, juda ko'pol bo'lardi, shuning uchun ingliz tilidagi "Takaday sog'lom" o'xshatishi rus tiliga "Ho'kizday sog'lom" bo'lib o'tsa, o'zbekcha tarjimaga kelib "otday baquvvat" bo'lgan.

Yozuvchi qahramonlar hayotini keskin muhit ichidatasvirilaydi, u esa kitobxonada ularga nisbatan fakat ishonch emas, balki xayrixoxlik tuyg'usini paydo qiladi. Urush va uning aojiasi tufayli Genriga dunyo faqat Genri va Ketrindan ibordt bo'lib qoladi. U jamiyatdan, siyisiy dunyodan ajralib, yakka o'zini va Ketrinnigina o'ylaydi, xolos.

Voqea fojiali yakunlanadi. Ketrin halok bo'ladi. Xeminguey kitobning xotimasida Ketrinning o'limi muqarrar ekanligini ishonarli qilib tasvirlash uchun uning birinchi jurnal nashridagi sahifalari grankasini o'qish vaqtida 39 marta qayta yozib chiqqan. Genri bilan Ketrin noilojlikdan vidolashadilar. Hatto buni avtorning o'ziham istamaydi, biroq hayot o'z yo'lida davom etadi, u istaklar bilab hisoblashib o'tirmaydi.

“I am going to die”, she “aid, than waited and said I hate it”

-Men tezda o'laman,-dedi u. Keyin bir zum sukut qilib turdi-da, dedi:-men esa xoxlamayman.

Juda ta'sirli gaplar. Bu yerda hech qanday sun'iylik yo'q. Go'yo yozuvchi yozmagandek, bu yozmishlar unga aloqador emasdek. Ketrinning o'sha holatdagi qiyofasi kitobxonning ko'z o'ngidan ketmaydi va xuddi sizga shikasta, mayin, lekin hamon nimadandir umidvordek gapiriyotganga o'xshaydi.

Aslida-ku, I hate it co'zma-so'z olganda “Men uni yomon ko'raman” yoki “Men undan nafratlanaman” bo'lishi kerak. Lekin asar ruhidan ko'rinib turibdiki, Ketrin o'limdan cho'chimaydi. U qo'rqqani uchun ajaldan nafratlanib, uni yomon ko'rayotgani yo'q, faqat u o'lishni istamayapti, xolos. Rus tarjimoni shuning uchunham bu jumlaning “Ya ne xochu” deb brogan.

O'zbekchada “Men esa, xoxlamayman”, dydi Ketrin. Ruscha variantida “esa” manosini beruvchi hechqanday so'z yo'q. inglizcha nusxasida ham. Lekin o'zbek tarjimoni til, mantiq hamda tasvirlanatotgan vaziyat taqazosi bilan qahramonni ana shunday gapirtirgan.

Umuman har ikki tarjima ham asarning ruhidan kelib chiqib, avtorning mehnati,

istagi, maqsadi, ijodiy uslubini chuqur his qilgan holda amalgam oshirilgan. Ayniqsa, Xemingueyning soda va aniq, sehrar tilini tarjimada o'ziday berish tarjimonlarning katta yutug'idir. Buyuk adibning "Chol va dengiz", "Alvido, qurol!" romanlari kabi uning "Borliq va Yoqlik", "Bayram hamrohing", "Okeandagi orol" rabi mashhur asarlari va hikoyalarini o'qish o'zbek kitobxonlarining orzysi bo'lib qoladi.

Tarjima asari o'zga iqlimga o'sgan mevali daraxtni bir iqlimda ko'kartirishga o'xshaydi. Bunda bogbon tabiat sirini yaxshi bilgan sohibkor bo'lsa, o'sha meaning o'zini-yu, uning mazasini boz aslidagiday saqlab qoladi. Buning uchun u niholni o' iqlim sharoitini hisobga olgan holda parvarish qiladiki, bu bilanundagi hamma manzur xislat va mevasining lazzatini saqlab qolishga erishadi-ko'pchilikning tahsiniga sazovor bo'ladi.

Tarjimonning hunari bundan ham nozikroq: u har ikkala iqlim-chet til va ona tili, zoriyiy va Vatan adabiyotining tabiiy iqlimini hisobga olib ish ko'rishi lozim.

Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz", "Alvido, qurol!" romanlarini o'zbek tilida o'qiganda ko'z o'ngimizda anashu qiyos gavdalanadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda Ernest Xemingueyning "Alvido Qurol" asarida 130 ga yaqin toponimlarni ko'rib chiqdik. Asarda birinchi jahon urushi tasvirlangan. Asardagi voqealar Italiyada ro'y bergan. Shuning uchun muallif Italiyaning geografik joy nomlarini ko'p qollagan. Masalan, **Italiya** sozi qadimgi rimliklar tilidan kelib chiqqan. Rimliklar Italiya yarim orolining janubiy qismini buqalar mamkakati deb atashgan.

Irlandiya so'zi irland tilidagi **Eire** va german tilidagi **Land** so'zlaridan kelib chiqqan. Afsonalarga ko'ra **Irlandiya** yer va ozodlik mabudasi bo'lgan deb e'tirof etiladi.

Argentina so'zi lotin tilidagi **argentums** so'zidan olingan bo'lib, kumush degan ma'noni bildiradi. 1500 yilda Ispaniya qo'shinlari Argentinaga kumush va oltin qazilma boyliklarini izlab kelishgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Fan va texnikaning yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi o'z navbatida tarjima va tarjima nazariyasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Mamlakatimizda ham oxirgi yillarda tarjima sohasi jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Shunga asoslanib bitiruv malakaviy ishimizga quyidagicha xulosani keltirishimiz mumkin.

Geografik joy nomlarning hayotimizdagi o'rnini, mohiyatini teran his qilishda mamlakatimizda olib borilayotgan toponimik siyosat va toponimik bilimlarni targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa toponimik joy nomlari bilan shug'ullanadigan olimlar zimmasiga katta vazifani, ya'ni mashaqqatli mehnat talab qiluvchi ilmiy faoliyat ko'rsatishni yuklaydi. Zero, toponimlar xalqimizning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lab turuvchi noyob so'zlar –yodgorliklardir.

Geografik joy nomlar ya'ni toponimlarda o'lka tarixi, etnografiyasi, va tabiati haqidagi ma'lumotlar saqlanib qoladi. Kishi o'z hayotini yashab turgan qishlog'i, mahallasi va shahridan ajratgan holda tasavvur qilolmaydi. Demak, inson hayoti toponimlar bilan uzviy bog'liq. Ko'rinadiki, joy nomlarining atalishi bejiz va besabab emas. Binobarin, geografik nomlarni madaniy yodgorlik sifatida yozib olish, to'plash va ilmiy tadqiq etish fan uchun lingvistik hamda tarixiy-etnografik jihatdan muayyan ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda ushbu bitiruv malakaviy ishimiz o'quvchilarning o'z o'lkalarini yanada ko'proq bilib olishlariga yordam beradi deb umid qilamiz.

Biz bu bitiruv malakaviy ishni yozar ekanmiz izlanishlarimiz natijasida ingliz tili keng imkoniyatlarga ega ekanligini, toponimlar to'g'risidagi ma'lumotlar juda qiziqarli ekanligiga amin bo'ldik. Bitiruv malakaviy ishni tadqiq etib bo'lgach, kiritiladigan takliflarim quyidagilardan iborat. Birinchidan, toponimlarni tarjima qilish usullari va yo'llari haqida mukammal nazariya yaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ikkinchidan, hozirgacha o'zbek tiliga jahon adabiyoti durdonalari namunalari tarjimalar asosan rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganligi bois, bilvosita qilingan tarjimalarda ularni aslyat matnidagidek o'qish imkoniyati o'zbek o'quvchilarida

bo'lmaganligi tufayli bunday toponimlar namunalarini vositachi tilsiz o'zbek tiliga tarjima qilish taklifini kiritgan bo'lar edim.

Uchinchidan, "Tarjima san'ati" turkumini qayta yo'lga qo'yish lozim, deb o'ylayman. Chunki mustamlaka davrida asarlar asosan rus tili orqali tarjima qilinar edi. Endi esa butun jahon adabiyotini asl nusxa tilidan o'girish imkoniyatiga ega bo'lib borayapmiz. Bu olamshumul jarayon o'z ilmiy tadqiqotigaga muhtoj.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. Sharq. 2008. 8-bet.
- 2.Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. Sharq. 1999. 37-bet.
- 3.Karimov I. A. O'zbekiston 21 asrga intilmoqda. Toshkent. Sharq. 2001. 19-bet.
- 4.Karimov I. A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. Sharq. 1997. 63-bet.
- 5.Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent. O'qituvchi. 1994. 45-bet.
- 6.Abayev V. A. Etimologicheskiye zametki. Moskva. Trudi instituta yazikoznaniy. 1956. str 442-448.
- 7.Ageeva R. A. Toponimika v trudax M. A. Kastrena. Moskva. Razvitiye metodov toponimicheskix issledovaniy. 1970. str 73-80.
- 8.Begaliyev N. B. Samarqand toponimiyasi (maqolalar to'plami). Samarqand. 2010. 3-6bet.
- 9.Begaliyev N. B. Toponimlarning o'zbek xalqi etnogenizidagi o'rni. Samarqand. O'zbek tili va adabiyoti. 2004. 67-71bet.
- 10.Begaliyev N. B. O'zbek etnonimlari tarixidan. Samarqand. 2004. 110-bet.
- 11.Begaliyev N. B. Toponimlarning qayta nomlanishiga doir mulohazalar . Roman-german tilshunosligining dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2009.
- 12.Bo'ronov J. va boshqalar. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent. O'qituvchi. 1974. 13-bet.
- 13.Bo'ronov J. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent. O'qituvchi. 1973. 284-bet.
- 14.Do'simov Z. Toponimik indikatorlar. O'TA. 1969. 5-bet.
- 15.Dulzon P. Etnicheskiy sostav drevnogo naseleniya Sibiri po dannim toponimiki. Moskva. 1960.
- 16.Ernest Heminguey. Alvado qurol. Toshkent.G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'ati nashriyoti. 1973. 343-bet.

17. Ernest Heminguey. A farewell to arms. Leningrad. Prosvesheniye. 1971. Str 263.
18. Ernest Heminguey. Fiesta i Proshay orujiye. Dushanbe. Adib. 1988. Str 367.
19. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. Toshkent. Fan. 1965.
20. Juchkevich A.L. Obshaya toponimika. Minsk. 1968.
21. Karimov S., Bo'riyev S. O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. Toshkent. Fan. 2006.
22. Murzayev E. M. Ocherki toponimiki. Moskva. Nauka. 1974.
23. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. Toshkent. O'zbekiston. 1978. 157-bet.
24. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. Toshkent. O'ME. 2005.
25. Qorayev S. Toshkent toponimlari. Toshkent. Fan. 1991. 63-bet.
26. Qorayev S. Toponimika. Toshkent. Fan. 1970. 32-bet.
27. Sultonova D. Bevosita tarjima saboqlari. Samarqand. 2005.
28. Sultonova D. A manual of translation. Samarqand. 2005. p98
29. Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. Fan va texnologiya. 2009. 222-223bet.
30. Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. 3-kitob. Toshkent. Adabiyot va san'at. 1976. 288-293bet.
31. To'xliyev B. Shamsiyeva M. Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi. 2006. 97-98bet.
32. Veselovskiy N. Toponimika na slujbe istorii. Istoricheskiye zapiski. Moskva. 1945.
33. O'rinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar. Samarqand. Zarafshon. 2003.
34. G'aybulloh As-Salom. Zamondoshlari xotirasida. Toshkent. Toshkent islom universiteti. 2002. 283-bet.

Lug'atlar ro'yxati:

1. Azizov A. Russko-uzbekskiy kratkiy slovar. Toshkent. O'qituvchi. 1989. Str510.
2. A Supplement to the Oxford English Dictionary / Ed. by R.W. Burchfield. –Vol.4. –Oxford: Clarendon Press, 1986. 1410, 56p.
3. Bolshoy anglo-russkiy slovar / Pod obshem rukovodstvom professor.
4. Hornby A. S. The Advanced Learners Dictionary of Current English. London. 1971. 947p.
5. Oxford Advanced Learners Dictionary of Current English. London. Oxford University Press. 1998. 880p.
6. The Random House Dictionary of the English Language: The Unabridged Edition. New-York: Random House. 1997. 2059p.

Foydalanilgan elektron manbalar:

www.lib.ec.knigi

www.ziyonet.uz

www.google.ru

www.doc.uz

www.ziyouz.com

www.litra.uz